O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

XALQ IJODIYOTI FAKULTETI

“MADANIYAT VA SAN’AT MUASSASALARINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH” KAFEDRASI

**Madaniyat va san’at sohasidagi islohatlar va ularning samaralari mavzusidagi**

# BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Bajardi:** “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi bitiruvchi 4 kurs talabasi
Maxmudov Nodir __________
(imzo)

**Ilmiy rahbar:** “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish va boshqarish” kafedrasi katta o`qituvchisi E.Niyazova _________
(imzo)

Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi. Kafedra majlisisning ______ sonli bayonnomasi “___” ___________2018 yil

**TOSHKENT-2018**

## MUNDARIJA

**KIRISH.........................................................................................................3**

**I.BOB ISTIQLOL YILLARIDA O‘ZBEKISTONDA MADANIY SIYOSATNING AMALIY IFODALANISH TAMOYILLARI.**

I.1.Adabiyot va san’at sohasidagi islohatlar .......................................................6

I.2.Teatr va kino san’atidagi islohatlar ...............................................................18

1.3 Rasmiy hujjatlar sharhi……………………………………………………..21

**II. BOB MADANIYAT MUASSASALARIDA AMALGA OSHIRILGAN ISLOHATLAR VA ERISHILGAN NATIJALAR.**

2.1.Madaniyat va istirohat bog‘lari faoliyati ……………………………………..31

2.2. Madaniyat va aholi dam olish markazlari faoliyatiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar.........................................................................................................37

2.3. Istiqlol yillarida jamoat va nodavlat tashkilotlarida madaniy faoliyatning yo‘lga qo‘yilishi.................................... ………………………………………43

**XULOSA.........................................................................................................72**

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI…………………………74**

**ILOVALAR..................................................................................................77**

# Kirish

**Tadqiqotning dolzarbligi** “San’at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson kalbiga yo‘l topish haqida so‘z yuritar ekanmiz, hammamiz yaxshi tushunamizki, bu sohada madaniyat va san’at muassasalari muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin bu xayotda sohani rivojlantirish, ishlab chiqarish bilan birgalikda madaniyat va ma’naviyat parallel rivojlanib bormasa erishilayotgan natijalar bardavomligida yangi-yangi to‘siqlar vujudga kela boshlaydi. Shu jihatdan mamlakatimizda barcha sohalarda olib borilayotgan islohatlar qatorida madaniyat va san’at sohasida yangiliklar, yangicha yondashish uchun qator sohalarda zamonaviy faoliyat joriy qilinmoqda.

2017 yil 25 dekabr kuni muhtaram yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilish bo‘lib o‘tdi. Bu majlisda Madaniyat vazirligi, Badiiy akademiya va ijodiy tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari tinglandi. Ularning faoliyatiga tanqidiy baho berilib, bu boradagi ishlarni faollashtirish va yangi bosqichga ko‘tarish bo‘yicha aniq topshiriq va ko‘rsatmalar berildi.

Majlisda madaniyat va san’at sohalarida sidqidildan xizmat qilayotgan ijodiy va texnik xodimlarni moddiy va ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, jumladan, ularning uy-joy, ijtimoiy va tibbiy sharoitlarini yaxshilash, gonorarlar miqdorini oshirish, yosh iste’dod egalarining salohiyatini yuzaga chiqarish bo‘yicha olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish g‘oyat muhim vazifalardan biri ekani alohida qayd etildi.

"Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san’at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi. Xalqimizning rivojlanish darajasi avvalo milliy madaniyatimizga qarab baholanadi. Shu ma’noda, madaniyat — bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishimizdan boshlashimiz lozim[1]", — deb ta’kidladi Shavkat Mirziyoyev.

---

[1] 2017 yil 25 dekabr kuni Prezident Sh.Mirziyoyev raisligida madaniyat va san’at sohasidagi dolzarb masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishdan.

Madaniyat va san’at sohasida yangi ijodiy marralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar bor-ku, ular Vatan va xalq manfaati, ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir, agarki, qaysi ijodiy jamoa o‘z faoliyatida ana shu o‘lmas g‘oyalarni bosh maqsad qilib qo‘ysa, ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa , xech shubhasiz , adabiyot ham madaniyat va san’at ham tom ma’noda ma’naviy yuksalishga xizmat kilib, o‘zinig ijtimoiy vazifasini to‘lik ado etishga erishgan bo‘ladi”. (1)Bir so‘z bilan aytganda tadqiqodning dolzarbligi. Mamlakatimizdagi madaniy siyosat negizi ostida komil insonni tarbiyalashdir.

**Tadqiqotning maksadi** Jaxon maydonida iqtisodiy krizis bo‘layotgan bir paytda mamlakatimizda keng ko‘lamdagi islohotlar olib borilmokda. Birgina, madaniy siyosatga berilayotgan e’tibor misli ko‘rilmagan darajada yurtimiz bo‘ylab, madaniyat va san’at muassasalari faoliyatida asosan aholining bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishning zamonaviy uslublarini tavsiya etish. Mamlakatimizdagi madaniy siyosatga e’tibor ertangi kunimizni bugungidan, yaxshiroq bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

**Tadqiqodning ahamiyati –**O‘zbekistondagi amalga oshirilayotgan madaniy siyosatni asl mohiyatini xalqimizga tushintirish , madaniyat va san’at muassasalari yosh avlod qalbiga g‘urur iftixor tuyg‘ularini uyg‘otish bilan birgalikda , san’at va madaniyat sohalarida qo‘lga kiritilgan barcha yutuqlarni yanada davom ettirish iste’dodli yoshlarimizni qo‘llab –quvvatlashdan iboratdir.

**Tadqiqotning obyekti:** Madaniyat va san’at muassasalarini faoliyatini o‘rganish tahlil qilish ularda bajarilayotgan ishlarning samarasini yoritish

**Tadqiqotning predmeti:** Madaniyat va san’at tashkilotlardagi tadbirlarni boshqarishni o‘ziga hosligi va uning ahamiyati haqida.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Mustaqillik sharoitida madaniyat va san’atni rivojlanishi uni boshqarish xizmat ko‘rsatish va san’at vositalarining muhimlilik darajasi aniqlandi, madaniyat muassasalarida madaniy tadbirlarni tashkil

etish va ularning faoliyatni boshqarish shaxsnining shakllanishida ijtimoiylashuv va hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lishga qiziqishlarini o‘yg‘otish.

**Tadqiqotning nazariy va amaliy asoslari:** Tadqiqotning nazariy ahamiyati bevosita uning ilmiy yangiligidan kelib chiqadi. Tadqiqot dasturini yaratish statistik tahlil, madaniy faoliyatning xususiyatlarini o‘rganilishi fanga nazariy xissa bo‘lib qo‘shildi. Istiqlol yillarida madaniyat markazlarida tadbirlarning muhim va uncha ahmiyatga ega

**Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati-** Madaniyat va san’at muassasalari xodimlari kelgusida ish faoliyatlarida, madaniyat va san’at hodimlarini malakasini oshirishda foydalanishi mumkin.

**Ilmiy yangilik-** Madaniyat va san’at sohasida yangilik bu qobiliyatli yoshlarni qo‘llab quvvatlash uchun faoliyatimizda keskin burilish qilish kerak. O‘zbekistonning chekka –chekka qishloklarida madaniyat va san’at sohalarini yanada rivojlantirish maqsadida shu qishloklarning o‘ziga to‘q qatlamidan foydalanish ya’ni tuman xokimligida ro‘yxatdan o‘tgan tadbirkorlik bilan shug‘illanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar va fermer xo‘jalik raxbarlaridan iqtisodiy yordam olish. Oddiygina qilib aytganda tuman hokimi maxsus komissiya tuzib shu komissiya nazorati ostida qishlokda o‘rtacha 10 yoshli bolani qobiliyati bor, lekin imkoni yo‘q. Shunday bolalarni tadbirkor va fermerlarga biriktirib qo‘yish kerak. Bu boladagi qobiliyatni shakllantirib, kelajakda o‘z mevasini bergunga qadar. Ularni iqtisodiy jihatdan nazorat qilib borishi kerak. Har bitta tadbirkor va fermer xo‘jalik raxbari o‘zlariga beriktirilgan bolaning o‘zgarishlari xaqida yilda bir marta monitoring qilib, Tuman xokimligi tasarruffida tuzilgan maxsus komissiyaga hisobot berishi kerak. Bunday komissiyaning nomini ”Madaniyat va san’at vasiyligi” deb nomlasak bo‘ladi. Natijaga keladigan bo‘lsak, qishloklarda o‘sib kelayotgan iste’dodli yoshlarimizni 30-40% yosh avlodni qobiliyatlarini saqlab qolgan bo‘lamiz. Men kelajakda o‘qishimni davom ettirib ushbu tadqiqot yangiligimni Respublikamizning chekka – chekka qishloklarida sinab ko‘rmokchiman.

**Tadqiqotning strukturaviy tuzilishi-** Kirish (2 bob 5 paragraf) Tadqiqot yangiligi Xulosa Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati Ilova dan iborat.

## I. BOB. Istiqlol yillarida O‘zbekistonda madaniy siyosatning amaliy ifodalanishi tamoyillari.

### 1.1. Adabiyot va san’at sohasidagi islohotlar

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 31 maydagi “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3022-sonli qarori talablari va 2017 yil 3 avgustdagi “Adabiyot va san’at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma’naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir” mavzusida Prezidentimizning mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan uchrashuvi hamda 2017 yil 22 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi: ustuvor vazifalar, reja va loyihalar xulosalaridagi ustivor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda shunday hulosa qilish lozimki, insonlarning ma’naviy dunyosini, jamiyatda madaniyat va san’at sohasini rivojlantirmay turib ko‘zlagan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi.

Qisqa vaqt ichida yurtimizda keng islohotlar amalga oshirildi. Birgina adabiyot sohasidagi , madaniy siyosatga nazar tashlasak ,ulkan o‘zgarishlarni guvohi bo‘lamiz desak, adashmagan bo‘lamiz. O‘zbek tilini davlat tili deb e’lon qilinishi bu olam shumul voqea bo‘lish bilan birga adabiyot sohasi uchun ham , keng imkoniyatlar eshigi ochildi. “Ma’lumki , o‘zlikni anglash , milliy ong va tafakkurning ifodasi, avlodlar o‘rtasidagi ruhiy - ma’naviy bog‘liqlik til orqali namayon bo‘ladi “.(9) Jamiyki ezgu fazilatlar inson qalbiga avvolo , ona allasi, ona tilinig betakror jozibasi bilan singadi. Ona tili – bu millatning ruhidir. “ Har bir millatning dunyoga borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oynaiy hayoti til va adabiyotdir . Milliy tilni yo‘qotmak millatning ruhini yo‘qotmakdir”.(10) Avvolo , respublika Oliy Kengashi qoshida davlat tili bo‘yicha taniqli olimlar , ijodkor ziyolilir , jurnalistlar va jamoatchilik vakillaridan iborat maxsus kamissiya tashkil qilindi.

Kamissiya a’zolari  ax olining  turli ijtimoiy   qatlamlari , siyosiy  guruhlar ,  barcha millat  va elat  vakillari  tomonidan  bildirilgan  fikr – mulohazalar  atroflicha o‘rganilib,   respublika rahbariyati va keng jamoatchilikka doimiy ahborot  berib borar edi.

Nihoyat , 1989 yilning 19- oktabr  kuni  bu o‘ta  muhim masala  Oliy Kengash sessiyasi  muhokamasiga qo‘yildi.  Va qariyib bir yarim asrlik qaramlikdan so‘ng mamlakatimizda o‘zbek tili davlat tili deb e’lon qilindi.(12) Shu tariqa uzbek tiliga davlat tili maqomi berilishi  bu xalqimiz uchun adabiyot ihlosmandlari uchun olamshumul voqea edi. Endi  adabiyot egalari o‘z tilida  erkin ijod qilish imkoniga ega bo‘ldilar .Adabiyot gulshanida turli xil ijodkorlar  o‘z ijodlarini   namoyon qila boshladilar . Ular  matbuotda  o‘z asarlari va ijod  namunalari bilan faol ishtirok  etib kelmoqdalar.

Ijodkor yoshlarni qo‘llab quvvatlash maqsadida  Zulfiya nomidagi  davlat mukofoti joriy etildi. Ayolni  muqaddas bilish , unga ehtirom  ko‘rsatish , ozod yurtimiz kelajagi bo‘lgan.  Har tomonlama etuk  yoshlarni  tarbiyalashdagi  beqiyos o‘rnini  yana bir bor  e’tirof etish , barkamol oqila  xotin – qizlar  avlodini voyaga yetkazish , ular  orasidagi  iqtidorli yoshlarning  adabiyot , san’at ,  fan va madaniyatni rivojlantirishdagi yutuqlari tengdoshlarining milliy istiqlol hoyalari va  madaniy – ma’rifiy  qadriyatlarga  e’tiqodinig  yuksalishi yo‘lidagi  ibratli faoliyati,   keng ko‘lamli islohotlarni   jadallashtirishdagi   faol ishtirokini rahbatlantirish maqsadida .

O‘zbekiston Xotin qizlar qo‘mitasi ,  «Fanlar akademiyasi» ,  «Badiiy akademiya» , «Manaviyat va ma’rifat»  jamoatchilik markazi ,Yozuvchilar , Bastakorlar ,  Me’morlar uyushmalari , “Oltin meros “ ,  “Ulug‘bek”, “Navro‘z “ jamg‘armalari va keng jaoatchilikning  Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti  ta’sis etish bo‘yicha o‘z fikrlarini taqdim etdi.

Mukofot 1999 yil 10- iyunda O‘zbekiston Respublikasi  Prezidentining farmoniga binoan  choriy etildi . Bu mukofot  maktab,  kollej, litsey , oliy o‘quv yurtlarida a’lo hulqi , o‘qishdagi  mufaqqiyotlari  ijtimoiy faolligi  bilan  a’loxida

iste'dodini namayon qilib ta'lim olayotgan , istiqlol g'oyalarini amalga oshirish yo'lida astoydil mehnat qilayotgan 14 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan iqtidorli qizlarga adabiyot , madaniyat , fan ta'lim ijod qilayotgan 14 nafar qizlarga beriladi. Xujjatlarni taqdim etish va rasmiylasht[2] irish tartibi respublika xotin- qizlar qo'mitasi qoshidagi Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti kamissiyasi tomonidan belgilanadi. Mukofotni qo'lga kiritgan qizlarga tantanali ravishda ko'krak nishoni va sovrindorlik yorliqlari topshiriladi. Mukofot takroran berilmaydi. Zulfiya nomidagi mukofotni qo'lga kiritgan sovrindorlar eng kam ish haqining 50 baravr pul miqdori va o'z yo'nalishlari bo'yicha oliy o'quv yurtiga imtihonsiz kirish huquqiga ega bo'ladilar. Bunday ijodiy imkoniyatlar barcha ijodkor yoshlarni yanada ilhomlantiradi va yanada katta imkoniyatlar eshigini ochadi. Ular o'zlariga berilgan mukofotni oqlash maqsadida , bor kuchini ishga solib , vatanimiz taraqqiyoti uchun , uning ravnaqi uchun , barcha imkoniyatlarini ishga solgan holda ijod qilib kelmoqdalar bugungi kunga kelib , adabiyot sohasini yanada takomillashtirish va bu sohada ijod qilayotgan insonlarni bir joyga to'plash maqsadida Yozuvchilar uyushmasi tashkil etildi va barcha viloyatlar bo'ylab uyushmaning markazlari tashkil etildi do'rmon qarorgohi ijodkorlar qarorgohiga aylantirildi yillar davomida mehnat qilgan fidoiy ijodkorlarga "O'zbekiston xalq yozuvchisi " O'zbekiston xalq shoiri" "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" kabi davlat mukofotlarini choriy etilishi ham bu adabiyot sohasiga qaratilgan , yuksak e'tibor namunasidir.Bugungi mustaqil zamonda har bir ijodkor insonlarga barcha sharoitlar mavjuddir .Ijodkor yoshlarni topish maqsadida ko'pgina ishlar amalga oshirildi va bir qator tanlovlar joylarda o'tkaziladi Bu tanlovlardi qo'llab- quvvatlash massuliyati " Kamolat yoshlar ijtimoiy harakat"ining joylardagi bo'limlari vazifisiga yuklatilgan . Masalan Zulfiya tavalludinig yuz yilligi munosabati bilan joylarda Zulfiya honim izdoshlari , kabi tadbirlar keng miqyosda o'tkazildi yoki Muhammad Yusuf tavalludiga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirni olaylik bunday tadbirlar mudrab

12 « Ўзбек тилига давлат тили мақоми берилиши »

yotgan tuyg‘ularni uyg‘otadi va ijodkor insonlarni bir birlari bilan fikr almashishga da’vat etadi. Bir so‘z bilan aytganda yurtimizda madaniy siyosatga e’tibor Har tomonlama e’tiborda ekanligi kishini hayratga soladi.Bunday e’tibor o‘sib kelayotgan , yosh avlod qalbiga , g‘urur iftixor tuyg‘ularini uyg‘otadi Ularning qalbiga insonparvarlik , vatanparvarlik , tuyg‘ularini uyg‘otadi.O‘zlariga bo‘lgan kelajakka bo‘lgan ishonch ertangi kunga umidvorlik paydo bo‘ladi. Ajdodlar merosiga hurmat ruxida tarbiyalanadi. Birgina fakt 1991 yil buyuk bobomiz Alisher Navoiy tavalludining 550 -yilligi keng nishonlandi. Shu yili O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Adabiyot institutiga Alisher Navoiy nomi berildi. Alisher Navoiy mukofoti ta’sis etildi. Yubeley yilida “ Lison ut tayr “, Sabba’iy sayyor”, Farhod va Shirin”, “ Layli va Majnun “, “Hayrat ul abror “ asarlari nashr qilindi va kinofilmlar va sahna asarlari yaratildi. 1991 yil 28- sentabr kuni Toshkent shahrida barpo etilgan Alisher Navoyi nomidagi O‘zbekiston Milliy bog‘ining ochilishi marosimi bo‘lib o‘tdi. Yoshlarga bu ulug‘ zotni namuna qilish maqsadida ilmga chanqoq talabalarga Alisher Navoiy sitependiya tasis etildi. Bir so‘z bilan aytganda mustaqillik bizga o‘zligimizni ajdodlar merosini asrab , avaylash va ularga munosib voris bo‘lish kerakli uchun keng imkoniyatlar eshigini ochdi.

Birgina misol Mustaqillik tufayli milliy istiqlolimiz kurashchilari Abdulla Qodiriy, CHo‘lpon , Fitrat , Usmon Nosir , Behbudiy, va boshqa ijodkorlarni nomlari tiklandi, asarlari chop etildi. Ularning tavallid tongan kunlari umummilliy bayram sifatida nishonlandi adabiyotdan ijod maydonidan erta ketgan adiblarimiz mustaqillik tufayli nomlari qayta tiklanib davlat mukofoti bilan taqdirlandi ularning nomi abadiy bo‘lishi uchun, shaxrimizdagi ko‘chalar bog‘larga nomlari qo‘yildi. Masalan “ G‘ofur G‘ulom “ bog‘i ,” Bobur bog‘i”, Abdulla Qodiriy bog‘i”. Shular jumlasiga kiradi. Adabiyot sohalaridagi yutuqlarni sanasak, adog‘i yo‘q.Bugungi dorul omon kunlar adabiyotni mustabet tuzimning tuzog‘idan asrab qoldi desak adashmagan bo‘laman. Shunday ekan , har bir inson atrofiga nazar solib ,jamiyatda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlarni ko‘rib ulardan zafqlana olish kerakligini anglab etishi kerak deb o‘ylayman. Biz birgina adabiyot sohasidagi islohotlarga to‘xtaldik holos shu o‘rinda

adabiyot bilan birga san’at sohalari ham , keng ko‘lamda islohotlar olib borildi har bir xalqni san’at va sportchalik dunyoga tez tanitadigan soha bo‘lmasa kerak. Shu o‘rinda san’at sohalaridagi o‘zgarishlarga to‘xtalsak. O‘zbekiston o‘z mustaqillikka erishgach san’at sohalarini rivojlantirish maqsadida, katta pul mablag‘lari ajratdi so‘zim isboti sifatida san’at sohalarining bir qator tarmoqlari bilan tanishamiz.

**Musiqa va raqs** san’ati O‘zbekistonda musiqa va raqs san’atini rivojlantirish maqsadida 1996 yilda “ O‘zbeknavo “ gastrol konsert birlashmasi ( 2001 yildan “ O‘zbeknavo “ estrada biolashmasi nomini olgan ) Unda musiqa va raqs san’atini rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab –quvatlash masalalari ko‘zda tutildi. San’atni barcha sohalari , madaniy ,marifiy muassasalari uchun malakali mutaxassis kadrlar tayyorlash Respublika Prezidentining doimo e’tibor markazida bo‘lib keldi.Xususan , Prezident I. Karimovning 1996 yil 31 dekbrdagi “ Musiqa tahsilini yaxshilash to‘g‘risida”gi farmoniga muofiq , o‘quv yurtlarida 6,5 ming dona musiqa anjomlari ajratildi.

Islohotlar davrida sovetlar davridagi madaniyat o‘quv ishlari qayta tuzilib ko‘plab yangi o‘quv maskanlari tashkil etildi. 90 yillar oxirida mamalakatda 27ta maxsus o‘quv yurti faoliyat ko‘rsatdi. Shundan bittasi oliy o‘quv yurtlari 20ta o‘rta - maxsus bilim yurtlari , 2 ta maktab internat.

Mustaqillik yillarida milliy qo‘shiqchilik san’ati rivojlandi. Respublika madaniyat ishlar vazirligi , 1992 yilda tashkil etilgan “ Xalq ijodiyoti va madaniy ma’rifiy ishlar respublika Markazi “, uning viloyatlardagi bo‘limlari musiqa va qo‘shiqchilik san’atini , havaskorlik va folklor san’atini rivojlantirish , unitilgan xalq ohanglarini tiklash maqsadida turli hil ko‘rik tanlovlar, festevallar tashkil etildi. Ushbu faktlarni isbotlash maqsadida , 2005 yil 18 -22 may kunlari Boysun tumanida xalqaro “ Boysun bahori “ to‘rtinchi ochiq folklor festivali bo‘lib o‘tdi. Maskur festival O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlar vazirligi , O‘zbekistondagi Yunesko vakolathonasi ,” Boysun “ jamg‘armasi hamda Surxondaryo viloyat hokimligi hamkorligi tashkil etilgan bo‘lib , unda Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarda faoliyat ko‘rsatayotgan foklor

etnografik jamoalari , baxshi shoirlar , oqinlar , halfalar liboschilar, kurashchilar ishtirok etdilar .Festivalda AQSH ,Ispaniya, Italiya, Fransiya, va Tojikiston respublikasidan kelgan mehmonlar ishtirok etganlar . Festivalda jami respublika miqyosda 36 ta jamoalar ishtirok etdi. Bunday festivallar yurtimizdagi o‘zgarishlarni o‘zga millat vakillariga ko‘rsatish bilan birgalikda qadimiy va qadrli an’analarimizni yana bir bor xalqimizga namoyon etish maqsadida bunday xalqaro tadbirlar juda muhimdir.

Katta ashula , lapar va o‘lan ijrochilarining “ Ko‘hna zamin ohanglari” respublika tanlovi O‘zbekiston Respublika Prezidentinig 2009 yil 1- apreldagi “ O‘zbekiston Milliy telaradiokompaniyasi tizimida yuqori texnologiyali teleradiyo uskunalari bilan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ -1088 son Qarorining 8- bandi hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 7 -oktabrdagi “2010-2020 yillarda nomoddiy madaniy meros obektlarini muhofaza qilish , asrash targ‘ib qilish va ulardan foydalanish Davlat dasturini tastiqlash to‘g‘risidagi 222- sonli qarorining 41 bandi ijrosini taminlash Qoraqalpog‘iston Respublikasi , Toshkent shahri va viloyatlarda faoliyat olib boradigan katta ashula lapar va o‘lan ijrojilari ijodiy faoliyati bilan xalqimizni yaqindan tanishtirish maqsadida o‘tkaziladi. Shu bilan birgalikda Toshkentda “ Asrlarga tengdosh navolar “ va “Bokiy ovozlar “ , Xorazm viloyatida folklor jamoalari askiya , qiziqchi, va masxarabozlarning , Qo‘qonda katta ashula lapar va yalla ijrochilarinig ko‘rik tanlovi o‘tkazildi. 1994 yil may oyida Parijda bo‘lib o‘tgan “ Sharq musiqasi “ festivalida Munojat Yo‘lchiyeva va Shavkat Mirzayevlar ishtirok etib o‘zbek milliy qo‘shiqchilik san’atini jahonga namoish etdilar .

Respublika Prezdentining 1996 yil 27- avgustdagi “ O‘zbekiston – Vatanim manim “ qo‘shiqlar bayrami to‘g‘risidagi farmoni qo‘shiqchilik san’atini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.1996 yilda o‘tkazilgan barcha viloyat shaxar va tumanlarda “O‘Zbekiston –Vatanim manim qo‘shiq tanlovida 54 mingdag ziyod qo‘shiqchilar qatnashdi. Bunday ko‘rik tanlov har yili avgust oyida o‘tkaziladigan

bo‘ldi va avgust oyining uchinchi yakshanbasi “O‘zbekiston-Vatanim manim “ qo‘shiq bayrami kuni deb belgilandi. Bu tanlov jarayonida Vatan mustaqillikni e’zozlovchi yuzlab qo‘shiqlar yoratildi. “O‘zbekiston- Vatim manim “, “ Men seni sevaman , O‘zbekiston”, “ Vatan yagonadir “ , “ Mustaqillik gullari”, “Ona yurtim”, kabi qo‘shiqlar shular jumlasidandir. Shu bilan birgalikda yurtimizda ijod qilayotgan yosh iste’dodlarga ham keng imkoniyatlar yaratilgan ularni qobiliyatlarini munosib baholash maqsadida davlat mukofotlari choriy etildi. Shunday davlat mukofotlaridan biri “Nihol “ mukofotidir. Ushbu mukofotga batafsil to‘xtaladigan bo‘lsak, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Yosh Istedodlar uchun “Nihol “ mukofoti 2000 yil 25- avgustda choriy qilindi.

“ Nihol “ mukofoti iste’dodli yoshlarning jamiyatimiz ma’naviy hayotini yuksaltirishdagi muhim o‘rnini inobotga olib o‘zining estrada, musiqa , mumtoz qo‘shiq , raqs va opera san’atini ijrochiligi sohasidagi mahorati bilan odamlarning yuragiga etib boradigan , yoshlarni ezgullikka chorlaydigan ularni ma’naviy barkamol inson qilib tarbilashga xizmat qiladigan asarlar yaratishda faollik ko‘rsatayotgan 17 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lgan iqtidorli yoshlarni muntazam rahbatlantirib borish maqsadida beriladi. Har bir o‘rinda munosib nomzodlar tanlash uchun Qoraqalpag‘iston Respublikasi va viloyatlarda tanlov o‘tkaziladi.Tanlovning birinchi bosqichi O‘zbekiston Respublikasining tuman va shaharlarida o‘tkaziladi. Talabgorlar hujjatlarini tuman va shahar madaniyat va sport ishlari bo‘limlari huzurida tuziladigan ishchi guruhga taqdim etadilar.Tanlovda g‘olib bo‘lgan sovrindorlar bir qator imtiyozlar beriladi.Nihol mukofoti aks etgan sovrin eng kam ish haqining 70 baravarida pul miqdori va o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha oliy o‘quv yurtlariga imtihonsiz kirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar .Bir so‘z bilan aytganda davlatimiz tomonidan qaratilgan bunday yuksak e’tibor zamirida faqat yurtimizni yanada rivojlantirish davlatimizni jahonda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlash yotibdi desak adashmagan bo‘lamiz.

Bir so‘z bilan aytganda O‘zbekiston istiqlolga erishgach san’at sohalarining nufo‘zi oshib bordi birgina 1997 yil 11- martda qabul qilingan Respublika

hukimatining “ Sharq taronalari”  Xalqaro musiqa festivalini oʻtkazish toʻgʻrisida”gi qarori  musiqa san’atining  noyob namunalarini  keng targʻib qilish , rivojlantirish dasturamal boʻlib  xizmat qildi.  1997 yil 25 -avgust  2- sentabr kunlari  Samarqandda boʻlib oʻtgan “Sharq taronalari “  birinchi xalqaro festivalida  dunyoning 40 dan ortiq mamalakatidan  ijrochilar ,  san’atshunoslar ,  jamoat arboblari ishtirok etdi. Festivalda yangragan  oʻzbek ohanglari  jahon oʻzra taraldi.  Har ikki yilda Samarqandda “ Sharq taronalari “  oʻtkaziladi . Bunday festivallar xalqimiz nomini dunyoga tanitish bilan bir qatorda  milliy madaniyatimizni qadriyatlarimizni oʻzga xalqlarga tanitish imkonini berish bilan barobarida turizm soxasini yana bir bora rivojlantirish uchun asos boʻladi. Oʻzbekistonda  musiqa , raqs  va qoʻshiqchilik san’atini rivojiga har yili 31 - avgust va 21 -mart  kunlari oʻtkazilayotgan Mustaqillik va Navroʻz  kunlariga bagʻishlangan  bayram tantanalari ijobiy ta’sir koʻrsatib kelmoqda. San’at sohasi katta yoʻnalishga egadir. Shunday yoʻnalishlardan biri .

**Me’morchilik va amaliy san’at**  Mustaqillik yillarida  shaharsozlik va arxitektura  qurilishi misli koʻrilmagan  darajada avj oldi. Memorchilikda  ikki asosiy tamoil koʻzga tashlanadi. Ulardan biri  sharqona  memorchilikning  an’anaviy  qonun qoidalariga rioya qilishdir . Bu tamoil Temuriylar davlat muzeyi , Turkiston saroyi, Oliy majlis, Toshkent shahar homiyati timsolida koʻrish mumkin. Memorchilikning ikkinchi tamoyili  Oʻzbekistonning  jahon  hamjamiyatidan  munosib  oʻrin olish sari intilishini  namoyish etuvchi  jahon me’morchiligining  eng yaxshi yutuqlaridan foydalanishda namoyon boʻlmoqda.Bunday binolar jumlasiga  “Afrosiyob”,  “ Sheraton” mehmonhonasi , “ Milliy “ bank ,  Markaziy bank , Respublika birja markazi , Oʻzbekiston Davlat kanservatoriyasi va boshqa binolar  kiritish mumkin. Oʻzbekistonning qadimiy  shaharlaridagi  tarixiy binolarni  tiklash ishlari  jadallik bilan olib borildi. Bunga Toshkent , Samarqant , Buxoro,   Xiva,  Shaxrisabiz kabi qadiiy shaharlarda oʻnlab binolar obidalar qad koʻtarmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga tadbiq etish maqsadida  yuzlab akademik litseylar , kollejlar qurildi. Bir suz bilan aytgan me’morchilik san’ati  bilan bir qatorda amaliy san’at ham rivojlana bordi halqimiz ongida yangidan- yangi fikrlar uygʻondi. Zamonaviy

binolarimizga nazar solsak o‘zbekkona uslibni ko‘ramiz misol tariqasida Oliy majlis binosini olaylik, bu binoning peshtoqi gumbazsimon birgina, shu binoga boqsangiz, qadimiy binolarimizning zamonaviy ko‘rinishi ko‘rishimiz mumkin. Me’morchilik bilan birgalikda amaliy san’at ham rivojlanib etuk asarlar yaratildi. Mustaqillik yillarida badiiy kulolchilik , pichoqchilik, kashtachilik, gilamdo‘zlik kabi amaliy san’at turlari tiklandi. Yangi ma’no mazmun bilan rivojlanib bormoqda. **Tasviriy san’at va rassomchilik san’atining rivojiga 1997 yilda tashkil etilgan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi va** “**Tasviriy oyna**” respublika ijodiy uyushmasi muhim rol o‘ynadi. O‘zbekiston rassomlari xalqimiz ongiga milliy g‘urur Vatanga sadoqat tuyg‘ularini uyg‘otuvchi qator san’at asarlarini yaratdilar . Amir Temur, Mirzo Ulug‘bek, Bobur Mirzo shular jumlasidandir. Tasviriy va miniatura san’ati yangi ma’no mazmun bilan boyidi. Shahar ko‘chalariga bugungi hayotimizni tasvirlovchi rasmlar o‘rnatildi. Binolarning devorlari odamlarga huzur – halovot , zavq bag‘ishlaydigan naqshlar bilan bezatildi. Xulasa o‘rnida shuni aytish mumkinki, O‘zbekiston o‘zining qisqa vaqt davomida o‘z o‘rniniga ega bo‘ldi. San’at va adabiyot sohalariga ko‘rsatilayotgan madaniy siyosatning asl mohiyati fikrimcha xalqimiz va yoshlarimiz ongiga milliy istiqlol g‘oyalarini singdirish bilan bir qatorda targ‘ib qilishda san’at adabiyot va radiyo televideniyani o‘rnini alohida takidlash lozim desak adashmagan bo‘lamiz. Shu o‘rinda ushbu jumlalarni keltirish maqsadga muofiq deb bilaman.” Odamlarning ming yillar davomida shakllangan dunyo qarashi va mentalitetiga asoslangan ayni vaqtda shu xalq ,“Shu millatning kelajagini ko‘zlagan va uning o‘rnini aniq va ravshan belgilab berishga xizmat qiladigan kechagi va ertangi kun o‘rtasida o‘ziga xos ko‘prik bo‘liga qodir g‘oyani men jamtyat mafkurasi deb bilaman.”(13) Bir so‘z bilan aytganda bizdagi barcha sohadagi islohatlar ezgulik g‘oyasi bilan sug‘orilgandir.

**Muzey** Millatimizning o‘zligini anglashda milliy tarixiy qadriyatlarimizni tiklashda muzeylar alohida o‘rin tutadi. Moddiy madaniyatimizning asosiy sohalaridan bittasi muzeylar hisoblanadi. Muzeylar tarixiy yodgorliklar maskani , adabiyot , san’at , urf –odatlari , hayot obrazlarimizning moddiy va mayishiy

jihatdan bir ko‘rinishi , kuzgusi , tasviri. Muzeylar qadimiy san’at va madaniyat asarlarining yig‘indisi asrab saqlanadigan go‘zal saroyidir. Muzeylar orqali o‘tmishni , tarixni ko‘rish ,eslash , mumkin. 1992 yilda Namanganda ulug‘ o‘zbek shoiri Boborahim Mashrab muzeyi , 1993 yilda Toshkentda o‘zbek ayollari orasidan chiqqan birinchi huquqshunos olima XadichaSulaymonova muzeyi raqqosa Mukarrama Turg‘unboyeva muzeyi , ochildi. 1996 yil 1-sentabr kuni Toshkentda Osiyoga yagona bo‘lgan Olimpiya shon- shuxrat muzeyi ochildi Bu muzeyi o‘zbekistonlik sportchilarning xalqaro musobaqalardagi muvaffaqiyatlarini namoyish etadigan mamlakatimizda sport harakatining rivojining rag‘batlantiradigan markaz bo‘lib qoladi. 1996 yil Toshkentdagi Amir Temur xiyoboni yaqinida Temuriylar tarixi davlat muzeyining tashkil bo‘lishi ma’naviy-ma’rifiy hayotimizda o‘zbek davlatchiligi tarixini , anglashda muhim ahamiyat kasb etmoqda Muzeyi har yili 100 mingdan ziyod tomashabin kirmoqda.Mamlakatimizning me’moriy yodgorliklarga boy 10 ta shahri tarixiy shaxarlar ro‘yxatiga kiritilgan 2500 ta me’moriy obida , 2700 ta arxeologik yodgorlik 1800 monumental san’at asari davlat muhofazasiga olingan . Buxoro , Samarqand, va Xiva shaharlaridagi 3 ta muzey qo‘riqhonalarida butun dunyoda eng nodir tarixiy yodgorliklar me’moriy obidalar , san’at asarlari saqlanib qolgan Ma’lumotlarga ko‘ra 2000 yil O‘zbekiston Respublika madaniyat ishlari vazirligi tasarrifudagi jami muzeyi 1.350 ming yeksponantlarga ega bo‘lgan . Hozirda ularning soni yana [3] boyitib bormoqda . 1998 yilda “ O‘zbekmuzeyi “ Respublika jamg‘armasi tuzildi. Aholining muzeyishunoslik madaniyatini oshirishga ko‘maklashuvchi “Moziydan sado” jurnali ta’sis etildi va u 1999 yildan boshlab , rus va ingliz tillarida nashr etila boshlandi. 1999 yil davlat qaromog‘idagi muzeylar 81tani tashkil etdi. Shulardan 15 tasi tarix muassasa , 23 ta o‘lkashunoslik , 10ta badiy san’at koshonasi , 20ta memorial , 8ta adabiyot , 4 ta tibbiyot muzeyoilari

13Ислом Каримов.» Юксак маънавият енгилмас куч». «Маънавият» . Тошкент-2008

Shuningdek mamlakatning shaharlari va tumanlarida 510 muzeyi faoliyat ko‘rsatmoqda.

### 1.2 Teatr va kino sohasidagi islohotlar.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilayotgan ma’naviy ma’riviy islohotlar jarayonida teatr san’ati ham rivojlandi. 1991-1994 yillarida bir qator viloyat markazlarida yangi teatrlar ishga tushirildi. 1993 yil avgust oyida Toshkent shahrida ish boshlangan “Turkiston “ saroyi nafaqat me’morchilikning yorqin namunasi , balki sahna guruhlari va atoqli artistlarinig chiqishlari bo‘ladigan dargohlarga aylandi. Andijonga jamoatchilik asosida faoliyat ko‘rsatayotgan yoshlar teatri Abbos Bakirov nomli yoshlar va bolalar teatriga aylantirildi. O‘zbekistonda Respublikasi Prezidenti Islom Karimovninig 1995 yil 20 – oktabrdagi “O‘zbekistonda teatr va musiqa san’atining yanada rivojlantirishni qo‘llab - quvvatlash va rag‘batlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi , 1998 yil 26- martdagi “O‘zbekiston teatr san’atini rivojlantirish to‘g‘risida”gi farmoniga binoan Madaniyat ishlar tizimida va teatr ijodiy xodimlari uyushmasi qoshida 1998 yilda “O‘zbekteatr “ ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi tuzildi . Birlashma teatr jamoalariga xalqimizning boy ma’naviy olamini uning madaniy merosi , milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat hissini uyg‘otuvchi spektakillar yaratishda iste’dodli yoshlarni teatrga jalb qilishda teatrlarning moddiy – texniqaviy bakzasini mustahkamlashda ijodiy hodimlarni ijtimoyi himoya qilishda bosh qosh bo‘lmoqda Alisher Navoiy nomli Davlat akademik katta opera va balet teatri Yaponiya tomonidan 1995 yil bepul ajratilgan 47 mln iyen (1500 ming Aqsh dolliri) qiymatiga teng yangi uskunalar bilan jihoslandi. Respublikamizda 41ta professional teatr faoliyat yuoritmoqda . 2001 yilda respublika teatr san’atida muhim tarixiy voqea buldi. Hamza nomidagi O‘zbek akademik drama teatri binosi muhtasham koshona shaklida qayta qurildi. Zamonaviy jihozlandi. Unga milliy teatr deya nom quyildi. O‘zbek milliy akademik teatrini nafaqat mamlakatimizda

balki O‘rta Osiyo mintaqasida professional teatr san’atiga asos solish va uni rivojlantirish xalqimizning boy va madaniy merosi va an’analarini asrab avaylash , yurtdoshlarimiz ayniqsa yosh avlodimizni milliy va umumbashariy qadriyatlar vatanga muhabbat va sadoqat ruhida kamol toptirish yosh iste’dodlarni ulkan xizmatlarini inobatga olib hamda tashkil etlganligining 100 yilligini munosib nishonlash maqsadida .

1 O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlar vazirligi , “ O‘zbekteatr”, ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi, Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazi, va keng jamoatchilikning O‘zbek Milliy akademik teatrining 100 yilligini nishonlash to‘g‘risidagi taklifi maqullandi. Va teatrning yuz yilligi munosabati bilan joylarda tadbirlar o‘tkazildi hujjatli filmlar yaratildi va bir qator aktyor va aktirisalar yubeley munosabati bilan davlat mukofotlari bilan mukofotlandi. Bir qator yangi dramatik asarlar yaratildi bir so‘z bilan aytganda istiqlol yillarida teatr sohasida ham tub o‘zgarishlar bo‘ldi. Respublika teatrlari Vatan tarixini sahna asarlari orqali yoritishga alohida e’tibor berildi. Milliy akademik drama teatri va Qashqadaryo musiqali drama teatr jamoalari “ Sohibqiron” , Xorazm viloyati musiqali drama va komediya teatri “ Jaloliddin Manguberdi “, Abror Hidoyatov nomli o‘zbek davlat teatri “Buyuk ipak yo‘li “, kabi dramalarni sahnaga qo‘ydi.

Teatrlarning 90 yillarning ikkinchi yarmidagi repertuarlarda tarixiy pesalar keng o‘rin oldi. 1996 yili Amir Temurning 660 yillik munosabati bilan 10 ta yangi spektakillar sahnalashtirildi. “Navro‘z -97 “teatr festivali munasabati bilan Sohibqiron obrazini ifodalovchi 14ta spektakl yaratildi. 1998 yili al-Farg‘oniy , al-Buxoriylarni yubileylariga bag‘ishlangan asarlar yaratildi. Mamlakatimizning boy tarixi namoyish etuvchi spektakllar Toshkentni yatakchi teatrlaridagina emas, barcha viloyatlaing teatr sahnalariga qo‘yildi. Muxtasar aytganda aytganda , ular ongiga Milliy istiqlol g‘oyasini singdira borish , vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish , ahloqiy estetik tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda . Nafaqat poytaxt , hatto viloyatlar teatrlar sahnalariga qo‘yildi. Muxtasar aytganda , Respublikamiz teatr san’ati xalqimiz ayniqsa yoshlarimiz ma’naviyatini boyitish

ular ongiga Milliy istiqlol g‘oyasini singdira borish , vatanparvarlik tuyg‘ularini kuchaytirish , axloqiy estetik tarbiya maktabi bo‘lib xizmat qilmoqda. Nafaqat poytaxt , hatto viloyatlar teatrida O‘zbekiston madaniyatining chuqur tarixiy ildizlarini , uning xalqining bosqichlariga qarshi kurashishini aks ettiruvchi spektakillar qo‘yildi. Adabiyot va san’atning asrlarida bugungi obod va farovon hayot ,Respublika tinchlik va osoyishtalik uchun kurash aks ettirilmoqda. Yosh avlodni ma’naviy va estetik tarbiyalashga katta e’tibor bermoqda. Buning uchun hamma yosh bolalar teatrlari faoliyat ko‘rsatmoqda Bir qator teatrlar jamoalari Amerika , Osiyo va Yevropa mamlakatlarida gastrollarda bo‘lishni Dunyo O‘zbekiston va O‘zbek xalqini yaqindan bildi. Teatr haqida so‘z ketganda Mamlakatimiz raxbarini so‘zlarini keltirmoqchiman. Milliy ma’naviyatimizni uzviy qismi bu teatr Behbudiyning “ Teatr –bu ibrathonadir “ , deb aytgan fikrini eslash mumkin. Bizning milliy teatr san’atimiz tarixan juda katta yo‘lni bosib o‘tgan bo‘lib uning qadimiy ildizlari xalq o‘yin va tomosholariga borib bog‘lanadi.Lekin XX asrga kelib o‘zbek teatr san’ati yangitdanyurtimiz va jahon miqyosida shakllangan davrlar sinovdan o‘tib kelayotgan an’ana va tajribalar asosida vujudga kelgani va kamol topgani e’tirof etish zarur Xususan poytaxt teatrlarida namoyish etilgan dunyo sahna san’atining mumtoz namunalari o‘z vaqtida nafaqat yurtimiz balki chet el tomoshabinlarini ham hayratga qoldirgani bu fikrni isbotlaydi. Shu bilan birga teatr ijodkorlarimiz tomonidan yaratilgan ko‘plab milliy ruhda xorijiy mamlakatlarda sahna asrlari jorijiy mamlakatlarda ham mufaqqiyat bilan ijro etib kelindi. Ta’kidlash joizki hozirgi vaqtda respublikamiz teatrlarida turli mavzu va janralarda ko‘plab spektakillar yaratilmoqda , o‘ziga xos ijodiy izlanishlar davom etmoqda. Ayni paytda teatr san’atimizda ham bugungi hayotimizni zamonaviy qahramonlari qiyofasini har tomonlama chuqur ochib beradigan tomoshabinni o‘ziga tortadigan, ham dramaturgiya, ham rejissura nuqtayi nazaridan badiiy yuksak asarlar afsuski kam ekanligini tan olishimiz lozim. Aksincha real haqiqatdan yiroq , odamga katta ma’naviy oziq bermaydigan asarlar bilan teatrlar kassasini to‘ldirish holatlari ko‘proq ko‘zga tashlanmoqda. Albatta , hozirgi davrda bozor

iqtisodiyoti talablarini inobotga olishimiz kerak. Lekin yuksak badiiyat va haqqoniylik , ezgu maqsadlarga xizmat qilish ruhi bilan sug‘orilgan asarlar yaratish barcha sana’t turlari kabi bu soha uchun ham asosiy mezon bo‘lishi tabiiy . (14) Bir so‘z bilan aytganda teatlar insondi ma’naviyatining yuksalishiga muhim rol o‘ynaydi chunki jonli sahnada rol ijro etish bu tomoshabinga katta ta’sir qiladi 1998 yil 26-mart O‘zbekiston teatr sana’tining rivojlantirish to‘g‘risidagi farmon o‘zinig amaldagi ijrosini ta’minlamoqda . 1998 yil 22- may o‘zbek teatri ijodiy ishlab chiqarish birlashmasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilindi shuningdek Vazirlar Mahkamasi 26 – avgust milliy g‘oya targ‘iboti va mahnaviy ishlarning saradorltgini oshirish to‘g‘risidagi qarorida teatr san’ati sag‘na ijodkorlarinig oldiga turgan vazifalarni belgilab berdi Mamlakatimizda 37ta teatr bo‘lib shulardan

**Opera teatri 1ta**

**Drama teatri 7ta**

**Musiqali drama teatri 11ta**

**Yoshlar teatri 2ta**

**Yosh tomoshabinlar teatri 2ta**

**Musiqiy teatrlar 3ta**

**Qo‘g‘irchoq teatrlari 10ta**

**Teatr studiyasi 1 ta rahbari Baxtiyor Yo‘ldoshov**

Har yili teatrlarda 150 dan ortiq turli mavzudagi va janrdagi spektakillar sahnalashtiradi. Jumladan 2009 yil 147 ta 2010 yil 156 ta 2011 yil 163ta Respublika bo‘yicha spektakillarni soni 710 ta 2012 yil holatida shundan milliy zamonaviy mavzuda 98 ta Jahon davlat universeteti 209 ta shundan 138 tasi rus tilida 57 tasi qoraqalpoq tilida spektakillar qo‘yildi. O‘zbekiston o‘z mustaqilligi qo‘lga kiritgach teatr tarixida ham katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Bu davrda teatrda quyidagi ilg‘or tendensiyalar ijodiy izlanishlar ko‘zga tashlandi .

**Birinchidan** teatrlar repertuarida tarihiy mavzuning salmog‘i oshdi. Buyuk ajdodlarimiz allomalar, shoirlar, davlat arboblari lashkarboshilarning hayoti va

taraqqiyot uchun xizmat qiladigan o‘nlab sahna asarlar yaratildi. Sahnalarda sho‘rolar davrida tilga olish man etilgan Bahouddin Naqshband, Hakim - at Termiziy Imom al- Buxoriy kabi allomalar “ Avesto” kitobi asosida Zardushtiy hayotini yorituvchi sahna asarlari vjudga kelib davrimiz tomoshabinlari ma’naviyatini boyitdi. Tarixiy, diniy e’tiqodga nisbatan qarashlari o‘zgardi. Ayniqsa Amir Temur va temuriylar haqida yaratilgan 20 ga yaqin sahna asarlari ma’naviy madaniy hayotimizda katta voqea bo‘ldi. **Ikkinchidan** Zamonaviy o‘zbek teatrida tasavvuf bilan bog‘liq Mashrab( milliy teatr), Xitoy malikasining siri (Rus teatrida) , “Umar Hayyom”(Yoshlar teatrida),” Na falakman na farishta”, (Muqimiy teatrida) kabi spektakilar eng murakkab mavzularga qo‘l yurayotganligi yangi manbalarni ochayotganlaridan dalolat beradi. Alisher Navoiy asarlari teatr sahnasida yangicha talqin etish boshlandi.

**Uchinchidan** zamonaviy talkin va vositalarda sahnalashtirish boshlandi. Navoyi , Shekspеr , Qodiry Chulpon , Avloniy , G‘ofur G‘ulom asarlarinig sahnaviy talqinlari guvohlik beradi.

**To‘rtinchidan ,** teatrlarda ilgari qoloqliq belgisi sifatida qarab kelingan etnografiya , va folklor manbalari vositalaridan foydalanish butun bir uslubiy yo‘nalish sifatida ko‘zga yaqqol tashlanib sahna san’atinig milliy o‘ziga xosligini ko‘chaytirishga xizmat qilmoqda. “Alpomish” qahramonlik dostoni asosida poytaxt va viloyat teatrlarida 10 ga yaqin sahna asarlari qo‘yildi.

**Beshinchidan** dramaturgiya va teatrda zamonaviy mavzularda asarlar yaratilib sahnalashtirish yildan yilga oshib bormoqda. Zamonaviy mavzular ko‘proq melodramma , komediya , janrlar doirasi ishlanmoqda. Mustaqilliq yillarida Farg‘ona , Xiva , Namangan , Termiz shaharlarida, qo‘g‘irchoq teatrlar ishladi. Abbos Bakirov nomidagi jamoatchilik asosida ishlab kelayotgan yoshlar teatri davlat tasarrufiga olinib Andijon bolalar va yoshlar teatriga aylantirildi. (1990) O‘zbekistonda o‘tkazilgan “ Sharq va G‘arb “ teatr festivali , “ Humo” , xalqaro yoshlar teatrlari festivali. “ Navro‘z” “ Andijon” bahori respublika teatr festivallari Germaniyaning “Ander Rur “ teatri bilan “Muloqat “ teatr studiyasi hamkorlikda

tuzilgan “ Ipak yo‘li “ teatr sayohat loyihasi asosida o‘tkazilgan ikki tomonlama anjumanlar qo‘g‘irchoq teatrlari festivali teatr san’atning yangi ijtimoyi rivojlanishda muhim rol o‘ynamoqda shu bilan birgalikda teatrlarimiz o‘zlarining sahna asarlari bilan dunyo yuzini ko‘rmoqda O‘zbek Milliy akademik drama teatri , Alisher Navoyi nomidagi akademik drama teatri Muqimiy va teatrlari Germaniya, Fransiya, Italiya, kabi davlatlarda ijodiy safarlar uyushtirdi. Respublika va xalqaro miyoqsdagi festivallar , tadbirlar, ijodiy va xotira kechalari , teatrlarning tashkil topgan sanalari tantalari ravishda o‘tkaziladi. Jumladan , an’anaviy “Navro‘z-99” respublika teatr san’ati festivali , Qatog‘on qurbonlari xotirasiga bag‘ishlangan – “Andijon bahori -99” teatr san’ati festevali ,Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi , Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘Zbekiston milliy universiteti “ Nihol “ yoshlar teatr studiyalarining festevallari ,Qarshi shahrida 1999 yil o‘tgazilgan “Ipak yo‘li – teatr festevali o‘tkazildi .

## 1.3 Rasmiy hujjatlar sharhi

Mustaqillik tufayli yurtimizda madaniy siyosat borasida qator islohatlar o‘tkazildi. Madaniy siyosat borasida talay qarorlar qabul qilindi. Ularni amaldagi ijrosini ta’minlash maqsadida joylarda bir qator samarali ishlar amalga oshirmoqda Madaniy siyosat borasida mamlakatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilgan va qabul qilingan farmonlar bilan ushbu rasmiy hujjatlar sharhi sarlavhasida yoritmoqchiman

O‘zbekiston madaniy siyosatga davlat siyosati darajasiga kutardi desak adashmagan bo‘lamiz. So‘zim isboti sifatida O‘zbekistonning YUNESKO ga a’zo bo‘lishi tarixi haqida to‘xtalib o‘tmoqchiman.

O‘zbekistonning BMT homiyligidagi ta’lim , fan, madaniyat bilan shug‘illanuvchi xalqaro tashkilotga 1993 yil 29- oktabrda YUNESKO ning Parijdagi qarorgohida O‘Zbekistonni YUNESKO ga a’zolikka qabul qilish marosimi bo‘lib o‘tdi. O‘sha kuni Ulug‘bek tavalludining 600 yilligini nishonlash YUNESKO dasturiga kiritildi. 1994 yil oktabrda Parijda Ulug‘bek haftaligi

tantana bilan o‘tdi.  Xiva va Buxoro  YUNESKO  ning  jahon  madaniy  qadriyatlar ro‘yxatiga kiritildi.  Bu ro‘yxatad 411 ta obekt bor .1994  yil dekabrda respublikamizda YUNESKO  ishlari  bo‘yicha O‘Zbekiston  Respublikasi  milliy komissiya  tashkil etildi. ,u  idoralaroro organ bo‘lib tarkibiga ta’lim fan madaniyat va  axborot sohasidagi  vazirliklar va  idoralardan 49 kishi a’zo bo‘ldi. 1995 yil  iyul oyida YUNESKO  qaroriga  binoan  Samarqandda Markaziy Osiyo  tatqiqotlari xalqaro instituti tashkil etildi. YUNESKO  BOSH deriktori Federiko Mayyorning O‘zbekistondagi  rasmiy tashrifi chog‘ida 1995  yil iyul oyida  mazkur institut ochildi. YUNESKO  Amir Temur tavalludining 660 yilligini xalqaro miqyosda nishonlashga qaror qabul qilindi va  1996 yil oktabr oyida Parijda Amir Temurga bag‘ishlangan bir xaftalik  xalqaro anjuman bo‘ldi. Amir Temur  tavallud topgan Shaxrisabz shahri  YUNESKO ning madaniy  qadriyatlar ro‘yxatiga kiritildi. Bir so‘z bilan aytganda  ushbu madaniy tashkilot  barcha mustaqil davlatlarning qadimiy san’atini va madaniyatini asrab avaylash bilan birgalikda ularning rivojlantirishga amaliy va moddiy yordam berib turadi. O‘zbekiston bu tashkilotga a’zo bo‘lishi bizning vatanimiz  qadiiy  madaniyatini  saqlab qolishdagi birinchi qadam edi.

YUNESKO  hamkorligida har ikki yilda  Samarqand qadimiy maydoni Registonda o‘tkazilib kelayotgan “ Sharq taronari”  musiqiy Xalqaro festivali o‘tkazish to‘g‘risida“gi  qarori musiqa san’atining  noyob namunalarining keng targ‘ib qilish  rivojlantirish  dasturamal bo‘lib xizmat qilmoqdi.1997 yil 25- avgust 2- sentabr kunlari  Samarqandda ushbu festeval bo‘lib o‘tdi. “Sharq taronari “ birinchi festevalida 40 dan  ortiq  mamlakatidan  ijrochilar  , san’atshunoslar ,  jamoat arboblari ishtirok   etdi. Bu festevaldi o‘tkashishdan maqsad xalqlar o‘rtasidagi san’at  kuprigini o‘rnatish bilan birgalikda yurtimizning qadimiy  urf odatlari o‘zga millat vakillariga ko‘rsatishdir.

1992 yil 31- dekabrda Prezidentiiz I.Karimov “ Musiqa tahsilini  yaxshilash to‘g‘risida”gi  farmonini e’lon qildi. Farmonga  binoan  musiqa maktablariga 6,5 ming dona anjomlarini ajratdi .Viloyatlarda san’at va musiqa  maktablarini qurishga va qurilgan musiqa maktablarini zamonaviy ta’mirlash bilan birgalikda jihozlashga

hlohida e’tibor berila boshlandi. Bugungi kunda musiqa va san’at maktablarida tahsil olayotgan o‘quvchilar xalqaro tanlovlarda munosib ishtirok etib kelmoqda.

O‘zbekistonda o‘zbek xalqining ma’naviy madaniy merosini tiklash va bu soxasidagi muhim tadbirlarini amalga oshirish maqsadida 1994 yil 23- aprelda “Respublika “madaniviyat va ma’rifat” jamoatchilik markazini tashkil etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respulikasini Prezidentining Farmoni qabul qilindi. Bu markaz o‘zbek xalqining ma’naviy madaniy tiklash , millat kelajagini belgilaydigan g‘oyalarni yuzaga chiqarish , yuksak iste’dod va tafakkur sohiblarining aqliy va ijodiy salohiyatini Vatan ravnaqi sari yo‘nalishga qaratilgan muhim tadbirlar anjumanlar ko‘rgazmalar tashkil etishdi yo‘lga quyildi. Markaz tomonidan aholi orasida o‘tkazilgan sotsiologik tatqiqotlar so‘rovlar asosida ishlab chiqilgan ma’naviy ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar jamoat birlashmari ilmiy ijodiy muassasa va tashkilotlar ommaviy axborot vositalarining ma’naviy ma’rifiy ishlarini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

**1997 yil Prezident farmoni bilan Xorazm Fanlar akademiyasi qayta** tiklandi. Respublikamizda ilmiy tatqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi , Bank Moliya Akademiyasi , Nukus va Samarqand, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining bo‘limlari ochilgan. O‘zbekiston mustaqillikka erishgach ilm- fanga alohida e’tibor berildi. Xalq xo‘jaligi va madaniy hayotning toboro ortib boryotgan talablariga javob bermaydigan institutlar yopildi. O‘zbek olimlarini fan texnika sohasidagi yutuqlari nafaqat O‘zbekiston balki jahonda ham tan olina boshlandi va ko‘pchilik olimlarimiz davlatimiz tomonidan mukofotlarga sazovor bo‘ldilar. Yurtimizda olimlarni taqdirlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Fanlar Akademiyasini al-Xorazmiy nomidagi Zahriddin Muhammad Bobur nomidagi oltin medallar ta’sis etildi.

Bir so‘z bilan aytganda yurtimizda ilm olish va madaniy hayotni farovon bo‘lishi uchun barcha sharoitlar mavjud desam adashmagan bo‘lamiz.

Respublika Prezidentining 1996 yil 27- avgustdagi " O'zbekiston – Vatanim manim qo'shiqlar bayrami to'g'risida" gi farmoni qo'shiqchilik san'atini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. 1996 yilda o'tkazilgan barcha viloyat shahar va tumanlarda "O'zbekiston - Vatanim manim " qo'shiq bayramida 54 mingdan ziyod qo'shiqlar yaratildi. Bunday ko'rik tanlov har yil avgust oyining uchinchi yakshanba kuni o'tkaziladigan bo'ldi. Tanlov davomida bir qator vatanni madh etuvchi qo'shiqlar yaratildi. Jumladan O'zbekiston –Vatanim manim , " Men seni sevaman " . Mustaqillik gullari", Ona yurtim" kabi qo'shiqlarni misol keltirish mumkin (15) Istiqlol tufayli milliy madaniyatiiz , jahon sivilizatsiyasi taraqqiyotiga bebaho hissa qo'shgan buyuk bobokolonlarimizning ma'naviy merosi qaytadan o'rganildi va tiklandi. Mustaqillik yillarida xalqimiz ma'naviyatining yulduzlari bo'lgan allomarimizning tavallud topgan sanalari BMT ning Maorif fan va madaniyat bilan bog'liq tashkiloti YUNESKO bilan hamkorlikda mamlakatimizda va xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Masalan.

**1991 yil (28- sentabr) Alisher Navoiyning 550 yilligi**

**1992 yil Boborahm Mashrab tavalludinig 350 yilligi**

**1993 (18 -dekabr ) Zahriddin Muhammad Boburning tavalludinig 510 yilligi**

**1994 yil Mirzo Ulug'bekning tavaludini 600 yilligi**

**1996 yil Amir Temur tavaludinig 660 yilligi**

**1997 yil (28 -noyabr) Abulhamid Sulaymon o'g'li CHo'lponing tavalludinig 100 yilligi**

**1998 yil (24 -oktabr) Ahmad al- Farg'oniyni tavalladuning 1200 yilligi**

**1999 yil ( 6- noyabr ) " Alpomish" dostoning 1000 yilligi (Termizda milliy epos qahramoni Alpomish xotirasini abadiylashtiruvchi yodgorlik majmui barpo etildi.)**

**2000yil (16- noyabrda ) BurhoniddiMarg'iloniy tavalludining 910 yilligi**

**2000 yil Kamoliddin Bekzod tavalludining 545 yilligi**

**2001 yil (noyabr ) “ Avesto “ yaratilganing 2700 yillik yubeleyiga bag‘ishlab tantanali marosim o‘tkazildi va yodgorlik majmuyi bunyod etildi.**

**1993 yil 16- sentabrda Buxoroda buyuk mutafakkir Bahouddin Naqshband tavalludinig 675 yilligi**

**1994 yil Xorazmda davlat arbobi va shoir Feruz tavalludining 150 yilligi**

**1995 yil ulug‘ shayx tasavvufning taniqli vakilliridan biri Najmiddin Kubroning tavalludinig 850yilligi.**

**1998 yil 23-oktabrda Farg‘ona shahrida buyuk alloma Ahmad al - Farg‘oniyning 1200 yilligi keng miqyosda aytish mumkin**

Bir so‘z bilan aytganda mamalakatimizdagi siyosiy madaniyatga bo‘lgan bunday e’tibor har qanday inson qalbiga g‘urur iftihor hissini uyg‘otadi desak adashmagan bo‘lamiz. Ajdodlarimiz qoldirgan qadimiy va boy merosimizni asrash va avaylash maqsadida ularga ko‘rsatilayotgan hurmat namunasi yosh avlod qalbiga vatanga bo‘lgan hurmat hissini uyg‘otadi desak ,adashmagan bo‘lamiz. Buyuk allomarimizning mutafakkirlarimizning yubeleylari munosabati bilan ularning o‘nlab nodir va noyob asarlari o‘zbek va ingliz, fransuz, nemis, yapon va boshqa tillarda tarjima qilindi. Haykallar o‘rnatildi. Ziyoratgoh maydonlar yaratildi.

1991 yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiyning 550 yilligi keng nishonlandi. Adabiyot institutiga Alisher Navoyi nomi berildi. Alisher Navoiy nomiga bag‘ishlangan sahna asarlari yaratildi. 2002 yil Navoiy shahriga shoir nomiga bag‘ishlangan yodgorlik o‘rnatildi.

Mustaqillikning ilk yillarida yoshlarni bitta maqsadda birlashtiradigan ularni san’atda va adabiyotda turli sohalarda muffaqiyatlarini belgilaydigan tashkilot tuzish kerakligini 2001 yil 24 yanvarda kuni Toshkentda yoshlarni harakatini tuzish kerakligin aytdi. 2001 yil 25 aprel kuni Toshkentda bo‘lgan yoshlar quriltoyida o‘zini boshqaradigan nodavlat notijorat O‘zbekiston Respublikasi “ Kamolat yoshlar ijtimoiy harakati tuzildi va uning Dasturi Nizomi tasdiqlandi. “Kamolat yoshlar harakatinig asosiy vazifasi yoshlarni birlashtirish sog‘lom turmush talablari asosida tarbiyalash jamyatda munosib o‘rinni egallashga ko‘maklashish ,

ularni manfatlarini himoya qilish yosh yigit qizlarning o‘z aql zakovoti kuch g‘ayratini to‘la namoyon etish uchun zarur shart sharoitlar sharatish Bu tashkilot 14 yoshdan 28 yoshgacha o‘g‘il qizlarni birlashtiradigan faol tashkilotdir.

**Ommaviy axborot vositalari.**

Omamaviy axborot vositalari xalqqa ilmiy huquqiy siyosiy, iqtisodiy madaniy ma’naviy ma’rifiy bilimlar , ma’lumotlar taryoatuvchi manbadir. Ular tarkibiga gazeta , va jurnal , radiyo va televideniya hamda boshqa axborot tarqatuvchi vositadir. O‘zbekiston i Respublikasining Oliy Majlisi 1997 yil 24 - aprelda “ Axborot olish kafolatlari va erkinligi to‘g‘risida “ va “ jurnalistik faoliyatini himoya qilish to‘g‘risida “ 1997 yil 26- dekabrda” Ommaviy axborot vositalari to‘g‘risida” qonunlar qabul qilindi. Ommaviy axborot vositalarini erkin faoliyat yuritishga huquqiy sharoitlar yaratildi. Mustaqillik yillarida resublika ommaviy axborot vositalarining soni ko‘paydi sifati yaxshilandi. 1990 yilda 376 nomda gazeta va jurnallar chop etilgan bo‘lsa 2008 yilda 870 ta gazeta va jurnallar chop etildi. 4 ta axborot agentligi 55 ta nashriyot va 100 ga yaqin davlat va nodavlat telestudiyalari va uslarning hududiy bo‘linmalari, 100 dan ortiq elektron axborot vositalari faoliyat ko‘rsatadi. Ko‘p millatli O‘zbekiston Respublikasida gazetalar , jurnallar , teleradiyostudiyasi 12ta tilda – faoliyat olib boradi. 1996 yilada ASHQ da joylashagn kopyuter tizimi “Internet” bilan bog‘landi va jag‘on yangiliklari qabul qilish va axborot uzatish yo‘lga qo‘yildi. Bir so‘z bilan aytganda madaniyat va san’at sohasidagi yangiliklarni xalqqa namoyon qilish uchun ommaviy axborot vositalarini o‘rni katta Masalan yaqinda “Navo “ kanali “ Ma’rifat” kanallari ishga tushirildi. Ular yurtimizda faoliyat yuritayotgan ijod qilayotgan ist’dodlarini xalqqa namoish qilish uchun ,ushbu kanallar xizmatda. Bir so‘z bilan aytganda Ommaviy axborot vositalari katta ta’sir kuchiga egadir.

O‘zbekiston madaniy va qadimiy tarixga ega xalq hisoblananadi. O‘zbek xalqi azal- azaldan mehmondo‘st bo‘lib kelgan. Birgina O‘zbekistonda 130dan ortiq millat va elat yashaydi. Ular mamlakat aholisining 20 foizining tashkil etadi. (16) Shu boisdan ham mustaqilligimizning dastlabki kunlaridayoq, jamiyatimizda

millatlararo totuvlikni saqlab qolish va mustahkamlashda alohida e'tibor qaratildi va qator amaliy tadbirlar amalga oshirildi.

Jumladan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasinig 1992 yil 13 yanvar qaroriga binoan Respublika baynalminal madaniyat markazi tashkil etilishi milliy madaniy markazlar faoliyatiga keng yo'l oyaib berdi. Bu esa millatlararo totuvlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutmoqda . RBMM tashkil etilgandan so'ng milliy madaniy markazlar faoliyati toboro rivojlanib , ularning miqdori ham yildan yilga ko'payib bormoqda. Jumladan 1992 yilda ularning soni atiga 10tagina bo'lsa, 2000 yilga kelib 110taga etdi. RBMM quyidagi vazifalarini bajaradi.

Ko'p millatli respublikamizda milliy munosabatlarni uyg'unlashtirish ya'ni vatanimiz tinchligi va osoiyshtaligining juda muhim omillaridan biri bo'lgan millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ta'minlashdan iborotdir. Bir so'z bilan aytganda madaniyatga bo'lgan e'tibor ko'p millatli xalqni yanada birlashtiradi. O'zbekistonda yashab, kelayotgan turli millatlar madaniy hamkorlik qilishi bu albatta ularni yagona vatan ostida birlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach o'zining qadimiy bayramlarini qayta tikladi .So'zim istboti o'rnida qadimiy bayramiz "Navro'z" bayramizmiz 1990 yildan boshlab O'zbekiston hukumatining qarori bilan 21 mart "Navro'z" milliy xalq bayrami kuni sifatida belgilanib dam olish kuni deb e'lon qilindi. 1992 yil esa Navro'z bayramiga rasmiy maqom berilib u tiklandi. Hozir O'zbekistonda Navro'z umumxalq bayramlaridan biri sifatida nishonlanadi. Har yili shu kuni respublikaning barcha viloyatlaridagi xiyobon va maydonlarda bayram saiyllari tashkil etiladi. Bunday bayramlarni o'tkazilishi xalqimizni tinchligidan dalolat berishi bilan birgalikda madaniyatimiz va san'atimizni yanada xalqqa namoiysh etishda bir vosita hisoblanadi. Shunday ekan yurtimizdagi tinchlik o'zaro ahillik insonlardagi samimiylik bayramlarni ko'taringi ruhda o'tishi bu ham bir madaniyatdir.

Qadimda madaniyat tarqatuvchi vosita sifatida din ham hisoblangan Bizning yurtimizda diniy bag'ri kenglik yo'l ajratilgan. Islom ta'limoti va falsafasini keng

o‘rganish , o‘zbek xalqining diniy . tarixiy , va madaniy , merosini chuqur ilmiy tatbiq etish , yuqori malakali dinshunos huquqshunos va iqtisodchi tayyorlash maqsadida 1999 yil Islom uneversiteti ochildi.

2007 yil Islom konferensiyasi tashkilotining Ta’lim fan madaniyat masalalari bo‘yicha muassasa ISESSO( AYSESKO) tomonidan Toshkent shahri islom madaniyati poytaxti deb e’lon qilindi. Yurtimizdagi barcha madiy islohatlar xalq uchun xalq manfati uchun , desak adashmagan bo‘lamiz. O‘tkaziladigan diniy bayramlar xalqlarimizni birlashtiradi ularni bita g‘oya asosida birlashtiradi . Bu ham madaniy siyosatning diniy ko‘rinishidir desak to‘g‘ri fikrga borgan bo‘lamiz.

San’at va madaniyatdek qudratli kuch orqali inson qalbiga yo‘l topish orqali so‘z yuritar ekanmiz hammamiz yaxshi tushinamizki, har qaysi iste’dod egasi o‘ziga hos bir olam , shu sababli ijod ahliga qandaydir aql o‘rgatish , eng asosiysi , ularni boshqarish mumkin emas. Lekin bu hayotda ularni birlashtiradigan yangi ijodiy sarralar sari ilhomlantiradigan muqaddas tushunchalar bor . Ular Vatan va xalq manfaati ,ezgulik va insoniylik tamoyillari bilan uzviy bog‘liqdir.(17)Agarki har qaysi ijodkor o‘z asarlarida ana shu o‘lmas g‘oyalarni bosh maqsad qilib qo‘ysa ularni badiiy mahorat bilan ifoda eta olsa , hech shubhasis , adabiyot ham ma’naviy yuksalishga xizmat qilib o‘zinig ijtimoiy vazifasini to‘liq ado etgan bo‘ladi. (18) Davlatimiz 23 yil mobaynida ta’lim fan madaniyat siyosat sport va boshqa sohalarda e’tibori ko‘rsatilayotgan imkoniyatlari boringki , tashabbuslari barcha barchasi yosh avlodni qalbiga yo‘l topish ularni komil inson qilib tarbiyalash kelajagimiz egalari bo‘lmish yoshlarimizni vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashdir . Chunki, san’at va madaniyatga oshno bo‘lgan qalbdan hech qachon yomonlik chiqmaydi deb o‘ylayman .

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach , san’at va madaniyat, adabiyot sohalarida ijod qilayotgan insonlarga bir qator mukofotlar ta’sis etildi ularni hozir bir boshdan sanab o‘tamiz.

“**O‘zbekiston Respublikasi san’at arbobi”**

**“O‘zbekiston Respublikasi fan arbobi”**

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti “**

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq yozuvchisi”**

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq rassomi”**

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq shoiri**

**“O‘zb[4]yekiston Respublikasi xalq hofizi”**

**“O‘zbekiston Respublikasi xalq bahshisi”**

**“ O‘Zbekistonda Respublikasida xizmat qilgan jurnalist”**

**“O‘zbekistonda Respublikasida xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi”**

**“O‘zbekistonda Respublikasida xizmat ko‘rsatgan me’mor “**

**“ O‘Zbekiston iftixori”**

**“O‘zbekistondaRespublikasida xizmat ko‘rsatgan artist”**

**“O‘zbekiston qahramoni”**

**“ Shuhrat medali”**

**“Oltin yulduz medali “**

Kabi bir qator mukofotlar choriy etildi va ular bugungi kunga kelib o‘z sohalarida mehnat qilib kelayotgan vatandoshlarimizga berilib kelish bilan birgalikda , ularga ana ma’suliyat yuklab kelmoqda desak adashmagan bo‘lamiz.

Shu o‘rinda bunday imkoniyat faqat bizni yurtda yaratilgan desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz.

Istiqlol yillarida o‘zbek xalqi va o‘zbek davlatchiligi tarixida muhim ahamiyat kasb etgan qadimiy shaharlarning yubeleylari ham respublika miqyosida keng nishonlandi. Masalan .

1993 yil 11 dekabr YUNESKO ning qarori bilan Buxoroning tarixiy markazi Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. 1997 yil 18- 19 – oktabr kunlari Buxoro shahrining 2500 yillik yubeleyiga bag‘ishlangan tantanalari marosim

17 Ислом Каримов « Юксак маънавият енгилмас куч» «Маънавият». Тошкент-2008

18 Ислом Каримов « Юксак маънавият енгилмас куч» «Маънавият». Тошкент-2008

o‘tkazildi. “Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi uchinchidan ming yillikka “ mavzuida xalqaro simpozium bo‘lib o‘tdi.

**1997 yil 20- oktabr Xiva shahrining 2500 yillik yubeleyiga bag‘ishlangan tantanali marosim o‘tkazildi.**

**2002 yil 2- aprel Termiz shahrining 2500 yillik yubeleyiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.**

**2002 yil 1 -noyabr Shaxrisabz shahrining 2700 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.**

**2003yil - sentabr Nukus shahrining 70 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tgan.**

**2006 yil 27- oktabr Qarshi shahrining 2700 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘ldi.**

**2006 yil 2- noyabr Xorazm Ma’mun akademiyasining 1000 yilligi Xivada tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.**

**2007 yil 25- avgust Samarqand shahrining 2750 yillik yubeleyina bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi. Bu marosim Samarqandda 1997 yildan biyon tantanali o‘tkazilib kelayotgan “Sharq taronalari “ 6 festevaliga ulanib ketdi.**

**2007 yil 7 -sentabrda Marg‘ilon shahrining 2000 yillik yubeleyiga bag‘ishlangan tantanali marosim bo‘lib o‘tdi.**

**2009 yil 26- 27- may Toshkent shahrining 2200 yilli yubeleyiga bag‘ishlangan “O‘Zbekiston poytaxti “ Toshkent -2200 yoshda “ mavzuyida xalqaro ilmiy konferensiya bo‘lib o‘tdi.**

Bu kabi yurtimizdagi qadimiy shaharlarimizning yubeleyilarini o‘tkazilishi bu ham madaniyatimizning ma’naviyatimizning namunasidir .

Vatanimiz ozodligi yo‘lida shahid ketgan Abdulla Qodiriy , CHo‘lpon, Fitrat, Usmon Nosir va boshqa xalq jigarbandining nomi izzat ikromi hurmati o‘z joyiga qo‘yildi va asarlari nashr etildi. Prezdentimiz Islom Karimov tashabbusi bilani Toshkentda mustamlakachilik davri qurbonlari xotirasi abadiylashtirish maqsadida

2000 yil 12- mayda Toshkentning Yunusobod tumanidagi Bo‘zsuv bo‘yida “Shahidlar xatirasi” yodgorlik majmui ochildi. 2001 yil 31 -avgust qatog‘on qurbonlarini yod etish kuni sifatida O‘zbekistonda ilk bor o‘tkazildi. 2002 yil 31-avgust Toshkentning “ Shahidlar xotirasi “yodgorlik majmuyida “Qatog‘on qurbonlari xotirasi “ muzeyi bunyod etildi.

2008 yil 31- avgustdagi muzeyning qo‘shimcha binosi va yangi ekspozitsiya ham ochildi. Yurtimizda davlat tomonidan Ikkinchi jahon urishi qatnashchilarini rag‘batlantirish va bu urish yillarida fashizmga qarshi janglarda jon fido etgan xalqimizning farzandlarini tiklanishini abadiylashtirish masalasiga ham katta e’tibor berdi. 1999 yil 2- martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimovning 9 -may Xotira va qadrlash kuni deb e’lon qilish to‘g‘risida “ farmoni e’lon qilindi. Bunday sferlarni kshplab keltirish mumkin . Bir so‘z bilan aytganda o‘tgani davr ichida O‘zbekiston misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarni amalga oshirildi desak adashmagan bo‘lamiz. Mamlakatimzda har bitta qilinadigan hayrli ish barcha barchasi inson manfaatlari uchun xizmat qiladi.

# II. BOB. Madaniyat muassasalarida amalga oshirilgan islohotlar va erishilgan natijalar.

## 2.1.Madaniyat va istirohat bog‘lari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrdagi 322-sonli “2011-2015 yillarda madaniyat va istirohat bog‘larining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va ularning faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qaror qabul qilindi. Vatanimizda an’anaviy tabiiy-madaniy maskan sifatida azaldan mashhur bo‘lib kelgan. Hozir ham bu go‘zal maskanlar ko‘pchilikning sevimli madaniy dam oladigan joylari hisoblanadi.

Endilikda xalqimizning madaniy bog‘dorchilik an’analari qayta tiklanmoqda. Madaniyat va istiroxat bog‘larida ajdodlarimiz tajribalari asosida gulzor, xiyobon, chorbog‘ yaratish an’analaridan foydalanilmoqda. Respublikamizda nafaqat tarixda

mashhur bo‘lgan bog‘lar, masalan, Samarqanddagi Amir Temur bog‘lari tiklanmoqda, shuningdek, Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi milliy bog‘ kabi mashhur yangi bog‘lar barpo etilmokda. An’anaviylik va zamonaviylikni uyg‘unlashtirgan yangi bog‘lar Namangan, Farg‘ona, Xorazm va boshqa viloyatlarda ham vujudga kelmoqda.

Respublikamizdagi 120 dan ortiq bog‘larning 3/4 qismi, ya’ni 90 tasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi tizimida faoliyat ko‘rsatmokda.

Yurtboshimizning “**Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch”** kitobida shunday ta’kidlangan:

Biz odamlarning ma’naviy tarbiyasini o‘ylab, tinchlik va xayrli ishlarni ko‘zlab harakat qilayotgan har bir kishini qo‘llab-quvvatlaymiz, ular bilan hamkorlik qilamiz.

**Masalaning boshqa tomoni - ma’rifat va madaniyatning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash. Insonning to‘laqonli hayoti uchun nihoyatda zarur bo‘lgan maktablar, kutubxonalar, teatr va boshqa madaniyat o‘choqlarini ko‘paytirish, ularning sharoitini yaxshilash.**

Bog‘ – insonning tabiat bilan yaqin munosabatni o‘rnatishi, tabiiy sharoitda madaniy dam olishi va ruhiy zavq olishi uchun xizmat qiladigan madaniy-ma’rifiy muassasa hisoblanadi. Ushbu tamoyildan kelib chiqqan holda bog‘ barpo etish juda buyuk savob ishlardan biri bo‘lib hisoblangan va qadimdan ajdodlarimiz tomonidan yurtimizning turli hududlarida bog‘lar yaratilgan.

Buyuk bobomiz Amir Temur o‘z tuzuklarida  “Xon bo‘lsang ham bog‘ yarat, gado bo‘lsang ham bog‘ yarat”,- deb bejiz yozib qoldirmagan. U o‘z so‘zlariga amal qilgan holda Samarqand shahri va uning atrofida 12 ta bog‘ning bunyod etilishiga boshchilik qilganligi to‘g‘risida tarixiy ma’lumotlar mavjud.

Yurtimizning Samarqand, Buxoro, Xorazm, Andijon, Namangan, Farg‘ona va boshqa hududlari qadimdan o‘zining ajoyib bog‘-rog‘lari va oromgohlari bilan mashhur bo‘lgan.

Bog‘larning barpo etilishida yurtimizdagi tabiiy sharoit ham muhim o‘rin tutadi. YA’ni, bahorning dastlabki kunlaridanoq ob-havoning isishi va to kech

kuzgacha shunday holatning saqlanib qolishi aholining va xorijiy mehmonlarning tabiat bag‘rida yayrab xordiq chiqarishi uchun sharoit yaratilishini talab etgan. Yurtimiz bog‘larida xalq sayillari, ommaviy tomoshalar uyushtirilib, bu tadbirlar nomoddiy madaniy merosimizning ajoyib namunalari bo‘lgan dorbozlik, qo‘g‘irchoqbozlik, xalq o‘yinlari bilan boyitilgan, askiya kechalari, mushoiralar uyushtirilgan. Hozirda esa bog‘lar umumxalq bayramlarini nishonlash maskanlaridan hisoblanadi.

“Barkamol avlod yili” munosabati bilan qabul qilingan Davlat dasturida yurtimizning har bir tuman va shaharida kamida bittadan zamonaviy madaniyat va istirohat bog‘ining faoliyat yuritishiga erishish, ularning barchasini zamonaviy attraksionlar va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash orqali aholi, ayniqsa, yoshlarning madaniy dam olishlari uchun sharoit yaratish, ularni milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, bog‘larni zamonaviy talablarga javob beradigan, turli yosh va aholi guruhlarining dam olish maskaniga aylantirish asosiy maqsad etib belgilangan.

Ushbu maqsadlarga erishishda madaniyat va istirohat bog‘larini zamonaviy attraksion va o‘yin qurilmalari bilan jihozlash, ularda zamonaviy ko‘ngilochar obektlarni barpo etish qatorida istirohat bog‘lari bilan bog‘liq azaliy an’analarimizni ham saqlab qolish va ulardan yoshlar tarbiyasida unumli foydalanishni tashkil etish ham zarur.

**Dasturdan ko‘zlangan maqsadlarni amalga oshirish uchun:**

madaniyat va istirohat bog‘lari bilan bog‘liq huquqiy-normativ bazani takomillashtirish, bog‘lar faoliyatini muvofiqlashtirish tizimini yaratish;

madaniyat va istirohat bog‘larida kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olgan holda kadrlar tayyorlanishini maqsadli tashkil etish, u yerda ishlayotgan xodimlarning malakasini oshirish va kadrlarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish;

madaniyat va istirohat bog‘larida o‘tkaziladigan madaniy tadbirlar ko‘lamini oshirish, yangi shakl va uslubdagi madaniy va sport tadbirlarining o‘tkazilishiga erishish;

madaniyat va istirohat bog‘larida aholining barcha qatlamlari uchun, ayniqsa, oilaviy dam olishga xizmat qiladigan sharoit yaratish, xususan:

sokin hududda aholining tabiat qo‘ynida xotirjam dam olishini tashkil etish, bolalarda tabiatni asrash tuyg‘usini shakllantirish;

bolalar maydonchalarida kichik yoshdagi bolalarning zavqli o‘yinlar bilan mashg‘ul bo‘lishiga sharoit yaratish,

ko‘rgazma zallarida turli tasviriy san’at va hunarmandchilik mahsulotlarining ko‘rgazmalarini o‘tkazish orqali yoshlarda estetik didni tarbiyalash;

estrada maydonlari va amfiteatrlarda mumtoz, estrada, folklor yo‘nalishlaridagi konsert dasturlarining namoyishini tashkil etish,

aholiga ko‘rsatiladigan servis xizmatining turlarini ko‘paytirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratish.

Ushbu vazifalarning to‘liq amalga oshirilishi uchun madaniyat va istirohat bog‘lari hududi va ularda joylashtiriladigan obektlarga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va shu asosda uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog‘larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish, namunaviy loyihalarning joylardagi mavjud bog‘larni rekonstruksiya qilish loyihalariga moslashtirish lozim bo‘ladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi markaziy madaniyat va istirohat bog‘lari - birinchi tipda, yirik (aholi soni va bog‘ maydoni e’tiborga olinadi) shahar va tumanlardagi madaniyat va istirohat bog‘lari – ikkinchi tipda, hududlardagi kichik hajmdagi bog‘lar uchinchi tipda bo‘lishi hisobga olinib, uchta tipdagi madaniyat va istirohat bog‘larining namunaviy loyihasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Har bitta madaniyat va istirohat bog‘ining maydoni ikki hudud:

aholining tinch tabiat qo‘ynida dam olishi va hordiq chiqarishiga xizmat qiluvchi sokin hudud;

aholining faol dam olishi uchun xizmat qiladigan gavjum hududga ajratilishi tamoyillariga amal qilish zarur.

Shu bilan bir qatorda:

sokin hudud egallagan maydonning eng kamida 65 foizi daraxtzor, harakatlanish yo‘laklari, hordiq uchun o‘rindiqlar, shuningdek obodonlashtirilgan yerlarga to‘g‘ri kelishi, qolgan 35 foiz maydonga boshqa obektlarni joylashtirish maqsadga muvofiq.

Madaniyat va istirohat bog‘lariga qo‘yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda aholining mazmunli dam olishini tashkil etish uchun hozirgi kunda juda kam bog‘lardagina faoliyat ko‘rsatayotgan ko‘ngilochar maskanlarning yangi turlarini barpo etish vazifasini ham amalga oshirish zarur. Yozgi estrada maydonchalari, sun’iy suv havzalari, ko‘chma sirk tomoshalarini namoyish etish maydonchalari, bolalar shaharchalari, raqs maydonchalari, xalq amaliy san’ati namunalarinining namoyishi va savdosi uchun xizmat qiladigan obektlar shular jumlasidandir.

**Yuqorida qayd etilgan vazifalarning amalga oshirilishi natijasida:**

Respublikadagi 148 ta madaniyat va istirohat bog‘larining sonini 77 taga ko‘paytirib, ularning soni 225 taga yetkaziladi;

2015 yilgacha muddatda barcha madaniyat va istirohat bog‘lari zamonaviy ko‘rinishga keltirilib, attraksionlar va kichik o‘yin qurilmalari bilan jihozlanadi;

madaniyat va istirohat bog‘larining hududiga va ularda bo‘lishi lozim bo‘lgan obektlarning tarkibiga qo‘yiladigan talablar asosida barcha bog‘lar tartibga keltiriladi;

madaniyat va istirohat bog‘larining yuridik maqomi, ularning mulkchilik shakli, boshqaruv va boshqa tashkiliy jihatlarini tartibga soluvchi meyoriy hujjatlar takomillashtiriladi;

madaniyat va istirohat bog‘lari malakali kadrlar bilan ta’minlanadi;

bog‘larda tashkil etiladigan madaniy-ommaviy, sport tadbirlarining ko‘lami va sifat darajasi ortadi;

bog‘larga tashrif buyuruvchilarning soni ortadi;

madaniyat va istirohat bog‘lari yagona andoza asosida pasportlashtiriladi, har bitta bog‘ning faoliyatini o‘rganish imkoniyatini yaratish uchun ularga guvohnomalar

beriladi, buning natijasida barcha bog‘larning tayyorgarlik darajasi nazorat ostiga olinadi;

servis xizmatining yangi turlari tashkil etiladi;

yangi ish o‘rinlari ochiladi;

voyaga yetmaganlarning bo‘sh vaqtlari mazmunli o‘tkazilishiga erishiladi.

Madaniyat va istirohat bog‘larining tashkiliy-huquqiy shakli, qaysi tashkilot yoki muassasaga bo‘ysunishidan qat’iy nazar, ularning faoliyatini muvofiqlashtirish, uslubiy va amaliy yordamni tashkil etish, mavjud meyoriy hujjatlarni takomillashtirib borish vazifasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi zimmasiga yuklanishi rejalashtirilmoqda. Shuningdek, bog‘larda olib borilayotgan ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarning samaradorligi oshirish, bog‘larning ushbu yo‘nalishlardagi faoliyatini yo‘naltirish maqsadida Vazirlik qoshida Respublika madaniyat va istirohat bog‘lari direktorlarining jamoatchilik Kengashi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, kelajakda ushbu Kengash faoliyatini yanada takomillashtirish orqali Madaniyat va istirohat bog‘lari uyushmasini tashkil etish ham rejalashtirilmoqda.

Dasturni amalga oshirish bilan bog‘liq xarajatlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining byudjetdan tashqari mablag‘lari, investorlar hamda homiylar mablag‘lari hisobiga amalga oshirilishi belgilangan. Shu maqsadda Dasturda belgilangan vazifalarni bajarish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy manbalarni aniqlash va uzluksiz moliyalashtirishni tashkil etish ishlari mahalliy hokimliklar zimmasiga yuklatilgan.

Madaniyat va istirohat bog‘larida barcha tegishli sharoitlar yaratilishi natijasida o‘zini o‘zi mablag‘ bilan ta’minlash imkoniyati yuzaga keladi va bu o‘z navbatida qo‘shimcha mablag‘larsiz faoliyat ko‘rsatish, zarur hollarda esa o‘z faoliyatini kengaytirish imkoniyatini keltirib chiqaradi. Aholiga ko‘rsatiladigan servis xizmati turlarini kengaytirish, ularning sifatini oshirish orqali bog‘larga keluvchilarning soni muntazam ortib borishiga erishiladi.

**Madaniyat va istirohat bog‘lari ma’muriyatining**

**NAMUNAVIY TUZILMASI**




## 2.2.Madaniyat va aholi dam olish markazlari.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 25 iyundagi 178-sonli qaroriga muvofiq yangi I, II, III tipda madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etildi.

I tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 40 ming nafardan ortiq bo‘lgan va kamida 400 o‘rindiqli tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tumanning ma’muriy markazlarida;

II tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 20 ming nafardan ortiq bo‘lgan va o‘rindiqlar soni 250 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida;

III tipda – xizmat ko‘rsatiladigan aholi soni 7 mingdan ortiq bo‘lgan va o‘rindiqlar soni 150 tani tashkil etadigan tomosha zaliga ega bo‘lgan holda shaharlarda va tuman markazlarida tashkil etilishi mumkin.

Shaharlarda va tuman markazlarida xizmat ko‘rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib I, II va III tipdagi markazlar, qishloq joylarda esa – faqat II va III tipdagi markazlar tashkil etilishi mumkin.

**Markazning asosiy vazifalari va funksiyalari**

- Markaz milliy an’anaviy madaniyatni saqlab qolish va o‘rganishda jamoatchilik ehtiyojlarini o‘rganish va qondirish, badiiy ijodni, boshqa havaskorlik ijodiy tashabbuslarni va aholining ijtimoiy-madaniy faolligini qo‘llab-quvvatlash, uning dam olishini tashkil etish maqsadida tashkil etiladi.

- Quyidagilar Markazning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi obektlarini saqlab qolish va ko‘paytirish, zamonaviy studiyalar va to‘garaklarni, shuningdek badiiy havaskorlik jamoalarini tashkil etish yo‘li bilan badiiy ijod va amaliy san’atni rivojlantirish (Markazning to‘garaklari, studiyalari va jamoalari yo‘nalishlari va nomlarining tavsiya etiladigan ro‘yxati ilova qilinadi);

- aholining barcha qatlamlari tomonidan talab qilingan zamonaviy madaniy-ma’rifiy xizmatlarni keng yoyish, Internet-studiyalar, elektron resurslar, shu jumladan Internet vositasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni o‘rganish kurslari tashkil etiladigan ko‘p funksiyali zallarda qiziqarli va maroqli tomoshalar, to‘ylar va boshqa tantanali tadbirlar, munozara klublari, sportning stol turlari va intellektual o‘yinlar bo‘yicha musobaqalar o‘tkazilishini tashkil etish;

- "O‘zbekiston iftixori" va "Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch" shiorlari ostida ma’naviy-ma’rifiy, madaniy-ommaviy tadbirlarni, milliy adabiyot va san’atning taniqli arboblari, sportchilar bilan aholining, shu jumladan yoshlarning estetik va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan uchrashuvlarni tayyorlash va o‘tkazish, ushbu faoliyatga professional ijodiy guruhlarni va san’at arboblarini jalb etish;

- foto va amaliy san’atning doimiy va vaqtinchalik ko‘rgazmalarini, tanlovlar, xalq ijodiyoti va tomosha san’atining mini-festivallarini o‘tkazish orqali iqtidorli yoshlarni aniqlash, shuningdek ularni ma’naviy qo‘llab-quvvatlash va ijodkor yoshlarning yutuqlarini targ‘ib qilish;

- havaskorlik badiiy va amaliy ijod jamoalari, studiyalari va to‘garaklari, xalq teatrlari, madaniy-bilish, tarix-o‘lkashunoslik, ilmiy-texnik, tabiat-ekologik, madaniy-maishiy, kolleksiya-to‘plash qiziqishlari va boshqa qiziqishlar bo‘yicha filarmoniyalar, havaskorlik birlashmalari va klublar tashkil etish hamda ular ishini tashkil etish;

- mahalliy urf-odatlar va an’analarga muvofiq ommaviy teatrlashtirilgan bayramlar va tomoshalar, xalq sayillari o‘tkazish;

- Markazning imkoniyatlari doirasida, aholining ehtiyojlarini hisobga olgan holda, unga ijtimoiy-madaniy xususiyatga ega bo‘lgan xilma-xil pulli xizmatlar ko‘rsatish, shu jumladan bolalarni to‘garaklarga jalb etish;

- ijtimoiy-ijodiy buyurtmalar, yuridik va jismoniy shaxslar bilan tuzilgan boshqa shartnomalar bo‘yicha turli madaniy-ommaviy tadbirlarni tayyorlash va o‘tkazishda maslahat, metodik va tashkiliy-ijodiy yordam ko‘rsatish, shuningdek qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatish (musiqali asboblarni, rekvizitni ijaraga berish, repertuar-metodik materiallarni sotish va shu kabilar);

- madaniy-ijodiy, madaniy-bilish, dam olishning boshqa turlarini hamda Markazning asosiy vazifalariga muvofiq bo‘lgan boshqa faoliyatni amalga oshirish.

**Markazning asosiy funksiyalari hisoblanadi:**

- O‘zbekistonning nomoddiy madaniy merosi obektlarini saqlab qolish, havaskorlik san’atini rivojlantirish bo‘yicha davlatning madaniyat sohasidagi siyosati natijalarini aks ettiruvchi badiiy loyihalar va dasturlarni ijodiy mujassamlashtirish;

- xalq ijodiyoti janrlari, nomoddiy madaniy meros bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yaratish va havaskorlik san’atini rivojlantirish;

- Markaz mutaxassislarining malakasini oshirish, doimiy ishlovchi ko‘rgazmalar, studiyalar, mahorat darslari, seminarlar tizimi orqali ko‘nikmalarni hosil qilish.

- Markaz qonun hujjatlariga muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish huquqiga ega.

- Markaz tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda ushbu faoliyatdan olingan daromadlarni va ushbu daromadlar hisobiga sotib olingan mol-mulkni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tasarruf etadi.

I tipdagi Markazlar:

II va III tipdagi markazlarning muassasalariga tashkiliy-metodik rahbarlik qiluvchi metodik markaz, madaniyat va san’atning tayanch muassasasi hisoblanadilar;

o‘zining xizmat ko‘rsatish tegrasiga kiradigan tuman markazi va aholi punktlarida yashovchilar o‘rtasida turli ommaviy va madaniy-tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda metodik va amaliy yordam ko‘rsatadi;

aholining, ayniqsa yoshlarning ehtiyojidan kelib chiqib to‘garaklar, studiyalar, badiiy havaskorlik jamoalari faoliyatini hamda markazlar tomonidan ko‘rsatiladigan boshqa xizmatlarni tashkil etish yuzasidan II va III tipdagi markazlarni metodik qo‘llanmalar, shuningdek yangi repertuar to‘plamlari bilan ta’minlaydilar;

O‘zbekiston Respublikasining milliy va kasb bayramlariga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishda II va III tipdagi markazlar kengroq jalb etilishini ta’minlaydilar;

II va III tipdagi markazlar bilan birgalikda nomoddiy madaniy meros obektlarini saqlash va targ‘ib qilish bilan bog‘liq bo‘lgan har yilgi tadbirlar rejasini ishlab chiqadilar va amalga oshiradilar.

Madaniyat va san’at sohasida teatr, kino, televideniye, xalq ijodiyotini rivojlantirish borasidagi zamonaviy talablarga, xalqimizning tobora ortib borayotgan intellektual, estetik va madaniy ehtiyojlariga javob beradigan yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash darajasi hamda sifatini takomillashtirish va tubdan oshirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishdagi oliy ta’lim muassasalarida yaratilgan mavjud moddiy-texnik bazadan yanada samarali foydalanish maqsadida **O’zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2012 yil 4 iyundagi “O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori** ishlab chiqildi. Ushbu qarorga asosan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 9 aprelda qabul qilingan 237-f-sonli farmoyishi asosida tashkil etilgan Komissiya hamda Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining Toshkent Davlat madaniyat instituti va O‘zbekiston Davlat san’at instituti negizida O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifi qabul qilindi. O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat instituti shartnoma va majburiyatlar bo‘yicha sobiq Toshkent Davlat madaniyat instituti hamda O‘zbekiston Davlat san’at institutining huquqiy vorisi hisoblanadi.

Quyidagi yo‘nalishlar O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutining eng muhim vazifalari etib belgilandi:

- madaniyat, teatr san’ati, kino va televideniye sohasida zamonaviy talablarga javob beradigan, xalq ijodiyoti an’analarini asrab-avaylash va rivojlantirishga qodir, badiiy ijodning zamonaviy metodlari, innovatsion texnika va texnologiyalarni puxta egallagan yuksak malakali mutaxassislarni tayyorlash;
- madaniy-ma’naviy boylikni asrab-avaylash va ko‘paytirish, xalqimizning boy madaniy-tarixiy merosi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg‘unligi asosida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan milliy teatr maktabi va badiiy ijod mahoratini rivojlantirish;

- o‘qitishning zamonaviy shakl va metodlari, ilg‘or pedagogika, innovatsiya va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron axborot resurslari, jumladan, Internetdan keng foydalangan holda, ta’lim jarayonining yuqori darajada olib borilishini ta’minlash;

- yoshlarni vatanparvarlik va milliy g‘oyaga sadoqat ruhida, ma’naviy yuksak va har tomonlama barkamol rivojlangan, keng dunyoqarashga ega bo‘lgan va mustaqil fikrlaydigan shaxslar etib tarbiyalash;

- madaniyat va san’at sohasi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 9 aprelda qabul qilingan 237-f-sonli farmoyishiga binoan tashkil etilgan Komissiyaning O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutida amalga oshirish ko‘zda tutilayotgan quyidagi takliflari ma’qullandi:

- “Madaniyat va san’at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish” yo‘nalishini Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoriga kiritgan holda, ushbu yo‘nalish bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash;

- “Madaniyat va san’at sohasi menejmenti” va “Ommaviy tadbirlar rejissurasi” yo‘nalishlari bo‘yicha yangi magistratura mutaxassisliklarini joriy etish.

2012-2013 o‘quv yillarida O‘zbekiston Davlat san’at va madaniyat institutiga qabul kvotalari bakalavrlar tayyorlash bo‘yicha – 297 nafar, jumladan, davlat grantlari bo‘yicha – 96 nafar hamda to‘lov-shartnoma asosida – 201 nafar; magistrlar tayyorlash bo‘yicha – 40 nafar, jumladan, davlat grantlari bo‘yicha – 11 nafar, to‘lov-shartnoma asosida – 29 nafar etib belgilandi.

Toshkent Axborot texnologiyalari universitetiga “Axborotlashtirish va kutubxonashunoslik” yo‘nalishi bo‘yicha yuksak malakali mutaxassislar tayyorlash vazifasi yuklandi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 7 mayda imzolangan PQ-1751-sonli qaroriga muvofiq, Toshkent Axborot texnologiyalari universitetiga 2012-2013 o‘quv yillarida ushbu ta’lim yo‘nalishida qabul kvotasi

bakalavrlar tayyorlash uchun – 60 nafar, magistrlar tayyorlash uchun esa – 6 nafar etib belgilangani ma'lumot uchun qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 9 aprelda qabul qilingan 237-f-sonli farmoyishi asosida tuzilgan Komissiyaga O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat institutini Toshkent Davlat madaniyat instituti hamda O'zbekiston Davlat san'at instituti negizida tashkil etish ishlarini muvofiqlashtirish vazifasi yuklandi.

Yangi tashkil etilayotgan Institutga yuksak malakali kadrlarni tanlov asosida, jumladan, Toshkent Davlat madaniyat instituti hamda O'zbekiston Davlat san'at institutining rahbarlari hamda professor-o'qituvchilari tarkibini qonunda belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkazish orqali saralab olishni ta'minlandi.

## 2.3. Istiqlol yillarida jamoat va nodavlat tashkilotlarida madaniyat ishlarining yo'lga qo'yilishi

Bozor iqtisodiyoti munosabatlariga ўtish bosqichida davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy-ma'rifiy faoliyatini yanada takaomillashtirish g'oyat muxim amaliy axamiyatga molik bўlib, uni mustaqil ўzbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan ulug'vor ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy ўzgarishlar asosida amalga oshirilishi lozim. Zero, «Milliy davlatchiligimizni qayta tiklashda kўp asrlik beqiyos ma'naviy merosimiz, tarixu madaniyatimiz, dinu tilimiz, muqaddas urf-odatlarimizning yana qad rostlashida sezilarli qadamlar qўyildi. Milliy g'ururimiz, oriyatimiz tiklanmoqda, qalbimizda asl vatanparvarlik tuyg'ulari uyg'onmoqda»[5].

Mamlakatimizda amlaga oshirilayotgan ma'naviy tiklanish jarayoni, xalqning madaniy xayotida kechayotgan isloxot rejalarini amalga oshirishda, jamoat tashkilotlarining faol ishtiroki zarurligini talab etmoqda. «Biz, - deb ta'kidlagan edilar Prezidentimiz I.A.Karimov, - fuqarolik jamiyatini qurishga intilmoqdamiz. Buning ma'nosi shuki, davlatimiz rivojlana borgan sari boshqaruvning turli xil

[5] Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Toshkent: O'zbekiston, 1996. 265-bet.

vazifalarini bevosita xalqqa topshirish, ya’ni ỷzini ỷzi boshqarish organlarini yanada rivojlantirish demakdir»[6].

Milliy mustaqilligimiz dadil odimlayotgan xozirgi davrda davlat, iqtisodiyot, madaniyat va ijtimoiy ongning barcha bỷg‘inlari orasidagi ỷzaro aloqadorlik va uzviy bog‘liqlikning amaliy axamiyatini e’tiborga olib, madaniy-ma’rifiy faoliyatni kỷtarishga katta e’tibor berilmoqda.

Zero, mamlakatimiz oldida turgan dolzarb ijtimoiy muammolarni xal qilishda jamoat tashkilotlari, fuqarolarning ỷzini-ỷzi boshqarish organlarining roli kattadir. Ayniqsa, maxalla muxim ijtimoiy bỷg‘in xisoblanadi. Shu bois maxallalar faoliyatini xar jixatdan qỷllab - quvvatlash, ularning moddiy ta’minotini mustaxkamlashga davlatimiz aloxida e’tibor bermoqda. Mamlakatimizda kechayotgan isloxotlarning tayanchi sanalgan maxallaning ijtimoiy xayotdagi ỷrni xaqida Prezidentimiz I.A.Karimov shunday yozadilar: «Jamoatchilik g‘oyalari, jamoa manfaatlarining birligi, kỷpchilik fikrining ustunligiga asoslanish – jamiyatimizning muxim xususiyatidir. Shu bois jamiyatni demokratiyalash tizimida, uning aossiy qoidalarini, eng avvalo ijtimoiy adolatni rỷyobga chiqarishda maxallaning roli g‘oyat kattadir. Xozirgi vaqtda oilalarning xaqiqiy moddiy axvolini, ularning ma’naviy va madaniy qiziqishlari doirasini maxalladan kỷra yaxshiroq biladigan boshqa tizim yỷq. Maxalla xozir xalq ishonchini qozongan adolat maskani xamda axolini ijtimoiy qỷllab - quvvatlash mexanizmi bỷlib qoldi. U jamiyatimizda isloxtlarni amalga oshirishning ishonchli tayanchi va ta’sirchan vositasiga aylanishi darkor»[7].

Jamoat tashkilotlarining milliy mustaqillik sharoitida madaniy-ma’rifiy faoliyatni rivojlantirishga yỷnaltirilgan faoliyatlarining asosiy maqsadi va vazifalari Prezidentimiz asarlarida[8] mukammal bayon etilgan bỷlib, bu fikrlar davlat va millat kelajagini belgilovchi ilg‘or g‘oyalarni ỷzida mujassamlashtirgan.

---

[6] Karimov I.A. O‘zbekiston siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqolining asosiy tamoyillari. Toshkent: O‘zbekiston, 1996. 11-bet.

[7] Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: O‘zbekiston, 1998. 400-bet.

[8] Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisodiyot, siyosat, mafkura. Toshkent: O‘zbekiston, 1996;

Madaniy-ma’rifiy faoliyatning rivojlanishida jamoat tashkilotlarining roli masalasi kỷpgina ỷzbek olilmari tomonidan falsafa, sotsiologiya, pedagogika va madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan ỷrganilgan.

Davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy-ma’rifiy faoliyatlari bevosita axoli ma’naviy extiyojlarini qondirish bilan bog‘liq bỷlib, turli-tuman shaklda voqe bo’lishi bilan xarakterlanadi. Madaniy-ma’rifiy faoliyat quyidagi umumiy jixatlari bilan ajralib turadi:

a) u faqatgina ustun rivojlangan madaniy faoliyatga borib taqalishi mumkin emas;

b) faolyat mazmuni va natijalari madaniy faoliyatning yetakchi tamoyili xisoblanadi;

v) madaniy qadriyatlar yaratish va ommalashtirish ijodiy jarayon bỷlib, unda sustgarchilikka yỷl qỷyilmaydi. Madaniy-ma’rifiy faoliyat ỷz tabiatiga kỷra kommunikativ faoliyat xisoblanadi.

Madaniy-ma’rifiy faoliyat – bu jamoa miqyosidagi ijodiy jarayon sifatida namoyon bỷladi. Qishloqlardagi jamoat tashkilotlari esa shaxsni madaniy faoliyatga jalb etishga yỷnaltiruvchi madaniy-ma’rifiy faoliyatga nisbatan bunday yondashuvning asosiy xususiyati shundaki, madaniy faoliyatda subekt sifatida jamoat faoliyatining namoyondasi xisoblanuvchi aloxida shaxs emas, balki jamoa, birlashma, madaniy uyushma yoki kneg xalq ommasi ỷrtasida ma’naviy faoliyat olib boruvchi jamoat tashkilotlari belgilanadi. Ayni paytda jamoat tashkilotlari faoliyatining samaradorligi ular bilan individual ijodiy faoliyat birligiga bog‘liqligini xam xisobga olish zarur.

Davlat va jamoat tashkilotlarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, tarbiyaviy ishlarni olib borish va dam olishni tashkil etish kabi vazifalarni aloxida ajratib kỷrsatish zarur. Chunki madaniy faoliyatning mazkur yỷnalishlari qishloq ma’naviy xayotida muxim axamiyat kasb etadi. Qishloq jamoat tashkilotlari pedagogik tizim sifatida xalqqa eng yaqin turuvchi bỷg‘in xisoblanadi. Ular faoliyati orqali axolining

madaniy va ma’naviy saviyasi ўsib boradi. Natijada axoli ўzinining ijodiy saloxiyatini rivojlantirish imkoniyatiga ega bўladi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining xar biri ўziga xos xususiyatlarga ega bўlsalarda, ular ўzaro aloqadorlikda ish olib boradilar. Ularning faoliyatidagi mushtaraklik maqsadning umumiyligida (xuquqiy demokratik davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini davlat qurishda ishtirok etish, qishloq madaniyatini rivojlantirish), vazifa va mazmunning mushtarakligida namoyon bўladi. Xar bir tashkilotning ўziga xos xususiyati esa tarbiyaning muayyan shakli, uslub va vositasini qўllashda kўzga tashlanadi. Qishloqda axoli estetik extiyojini qondiruvchi madaniy-ma’rifiy faoliyatning turli-tuman shakllaridan, xususan, ridioeshittirish, telekўrsatuv, kino, fan va madaniyat arboblari bilan uchrashuv, suxbat, maslaxat va boshqalardan foydalanish imkoniyatlari mavjud.

Axborot manbalari tizimida rўznoma, radio va televideniye asosiy ўrinni egallaydi. Jamoat tashkilotlari tomonidan ўtkaziladigan tadbirlar axborot manbalari orasida oltinchi ўrinni egallaydi. Ta’kidlash lozimki, mazkur tadqiqotning dastlabki bosqichi ўzbekiston Respublikasi mustaqilligi e’lon qilinishi arafasida olib borildi. Tabiiyki, kўp yillik mafkuraviy qullikda yashagan xalqimiz madaniy xayoti xam ўsha davrda shўrolar siyosati iskanjasida edi. Bunday inqirozli vaziyat qishloq axolisi madaniy faoliyatining turlari va manbalariga nisbatan bўlgan munosabatlarida xam ўz ifodasini topgan.

Jamoat tashkilotlarining madaniy-ma’rifiy faoliyatlari muammosiga bag‘ishlangan nazariy manbalar xamda Uzbekiston Respublikasi xukumatining ma’naviyat va madaniyatni rivojlantirish borasidagi xujjatlarini ўrganish asosida olib borilgan tadqiqotlar davlat va jamoat tashkilotlarining madaniy-ma’rifiy faoliyatni rivojlantirish borasida faoliyatlarning uslubiy tizimini ishlab chiqishda muxim nazariy axamiyat kasb etdi.

Davlat va jamoat tashkilotlarining axoli madaniyatini rivojlantirish bilan bog‘liq faoliyatlari tizimi – bu qishloqda madaniyatning shakllanishi, saqlanishi va mustaxkamlanishiga qaratilgan tadbirlar majmuasidir. Davlat va jamoat tashkilotlari,

shuningdek, axolining madaniyatini rivojlantirishdagi yuqori ijtimoiy faolligiga erishish mazkur tizimning asosiy vazifasi xisoblanadi. Ushbu vazifa tashkiliy, ijtimoiy vaa iqtisodiy tadbirlar majmuasidan iborat jarayon bỷlib, davlat, xỷjalik va jamoat tashkilotlarining ỷzaro xamkorlikdagi faoliyatlari orqali amalga oshiriladi.

Bugungi kunda madaniyat va san'at tashkilotlarini boshqarishda ijodiylikka tayanishning o'rni muxim sanaladi, sababi ijod insonni har tomonlama ulug'laydi uning ma'naviy va ruhiy olamidagi o'zgarishlarga olib kelimshini ta'minlaydi. Bu muassasalar orqali aynan ijodni shakillantirish, yoshlarimiz ongini madaniy – ma'rifiy faoliyat bilan bog'lanishini talab etadi. Madaniy-ma'rifiy faoliyat – axolini ma'naviy kamol toptirish, ma'naviy saviyasini oshirish, bilimini o'stirish, dunyoqarashini kengaytirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazishga ko'mak beradigan ishlar majmuasidir. Madaniy-ma'rifiy faoliyat bilan mafkura, ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, tarbiya, ijodga aloqador bỷlgan barcha tashkilotlar mashg'ul bỷlishadi. Ijodiylikka tayanishning tarixiy ildizlariga nazar tashlasak, aynan madaniy – ma'rifiy faoliyat ko'z o'ngimizda nomayon bo'ladi.

Arxeolog, tarixchi, etnograflar, san'atshunoslar bergan ma'lumotlarga qaraganda, madaniy – ma'rifiy faoliyat eng qadimgi davrlardayoq paydo bỷlgan va ibtidoiy odamlar xayotida muxim rol ỷynagan. Masalan, olimlarning qayd qilishlaricha "...bayramlarning, chuqur ildizlari insoniyatning gỷdaklik davriga borib taqaladi" yoki "bayram –insoniyat madaniyatining boshlang'ich shaklidir", deb ta'kidlaganlar. Ma'lumki, inson ỷz mehnati tufayli hayvonot dunyosidan ajralib chiqqach, yashash uchun kurash jarayonida qanchalik ongli mehnat qilsa, u shuncha muvaffaqiyatlarga erishgan. Kurash va mehnatda erishilgan mavaffaqiyatlar esa xursandchilikni vujudga keltirgan. Bu jarayon ibtidoiy odamlar ovchilik bilan kun kỷrayotgan davrlarda yaqqol sodir bỷla boshlagan, chunki arxeologik qazilmalar va g'orlardan, shuningdek, Surxondaryo viloyatining Sherobod voxasidagi Zarutsoy darasining ikkala tomonida chizilgan rangli suratlarda qadimgi davrda yashagan ibtidoiy

odamlar tomonidan chizilgan primitiv suratlarda asosan xayvonlar, ov qilish, ovchilar raqsi (ba’zan xayvonlar niqobida) kabi tasvirlar qadimgi odamlarning ўz mexnati ovi natijasini tantana qilganliklaridan dalolat beradi. Darxaqiqat ibtidoiy odam mexnati qanchalik samarali tugasa, qorni tўygan, xursand bўlgan va aksincha bўlsa, och qolgan, xafa bўlgan. Ovdan ўlja bilan qaytish va ўz mexnatidan manfaatdor bўlish xursandchilik, shodiyona kayfiyatni yaratgan. Bu xolatda ovchilar ov jarayonini imo-ishora, maxsus xarakatlar xamda ўyin shaklida ifodalashga urinishgan.

Tarixiy ma’lumotlarga qaraganda ibtidoiy ovchilar xayotida ovchilik ўyinlari muxim ўrin tutgan. Ba’zi manbalarda ular ovdan oldin ўtkazilganligi, ba’zilarida esa ovdan keyin ўtkazilganligi qayd etiladi. Ovdan oldin ўtkazilgan ўyinlar ov oldi mashqi, ya’ni ovga tayyorgarlikni tekshirishni, ovga ruxiy va jismoniy shaylanish vazifasini ўtagan xolda jiddiy ўziga xos kichik marosim shaklida uyushtirilgan. Bu ўyinlar jarayonida ibtidoiy odamlar ўljani osongina qўlga tushirishni, unga yaqinlashishni ўrganishgan, buning uchun niqob kiyib, xayvon qiyofasiga kirishni, uning yurish-turishlari, tovush chiqarishlarini mashq qilishgan. Aynan ana shunday ўyinlar jarayonida yoshlarni xam ov qilishga ўrgatishgan. Shu boisdan xam ўziga xos maktab vazifasini ўtab, bir tomondan ovchilar maxoratini ўstirishga yordam bergan bўlsa, ikkinchi tomondan esa, ularda taqlid san’atini shakllantirgan va rivojlantirgan.

Ovdan keyingi ўyinlar ov muvaffaqiyatli tugagandagina uyushtirilgan. Chunki ovdan ўlja bilan qaytish – bu ziyofat, xursandchilik qilishga, butun jamoaning bayram qilishiga imkon yaratgan. Ovchilar bunday ўyinlar yordamida “... kun bўyi ov qilib, charchab qaytgach, kechqurunlari ўzlariga dam berish, bugungi taassurotlarini, kayfiyat va tuyg‘ularini, ovdan mamnunliklarini, tўqlikni, shўxliklarini ifodalashardi”, deb yozadi professor M.Raxmonov “ўzbek teatri” asarida. Bu jarayonlar, ya’ni xar bir muvaffaqiyatli ovdan keyin ўyinning an’ana bўlib qolishi bayram kayfiyatida ўtadigan maxsus marosimni shakllantira boshlagan. Yuqorida aytib ўtganimizdek, Zarautsoy darasida, Farg‘ona vodiysidagi

Saymalitosh g‘orlarida aks ettirilgan devoriy rasmlardan va boshqa arxeologik topilmalar, tasvirlarda bularni kỷrishimiz mumkin.

Eng qadimiy tarixiy voqealar, bayramlarga oid ba’zi ilmiy adabiyotlarda ta’kidlanishicha, ilk bor maxsus uyushtirilgan bayramlar totemlarga bag‘ishlangan. Olimlarning ta’kidlashlaricha “eng qadimiy va ommaviy bayramlar qatoriga eng avvalo zoofagik bayramlarni kiritish mumkin”. Bu bayramlarda turli joylarda totem xisoblangan turli xayvonlar – ayiq, yovvoyi echki, sigir, bug‘u, ot kabilarga sig‘inishgan. “Qadimgi dunyo tarixi” kitobida yozilishicha, totem xayvonlarga bag‘ishlangan bayramlarda odamlar unga taqlid qilishgan, ularning terisini kiyib ỷyinga tushishgan. Shuningdek totem xisoblangan xayvonlarni faqat tantanali marosimlarda ỷldirishgan va yeyishgan. Bundan shu ma’no kelib chiqadiki, ba’zi yerlarda, maxsus marosimlar uyushtirilib, unda totem xayvonlarga sig‘inish bilan bir qatorda, ularning gỷshtlari yeyilgan. Boshqa yerlarda, masalan, Xindistonda iloxiy xisoblangan xayvonlarni, masalan, ona kabi sut beradigan sigirlarni sỷyish u yokda tursin, unga ozor yetkazish xam mumkin emasligi, aloxida xurmat bilan qarash qadimiy davrlardan to xozirgi kungacha saqlanib qolgan.

Tarixiy manbalarga qaraganda yer yuzining shimoliy qismida kechki paleolit (tosh davri) davrida “Ayiq bayrami” bỷlgan. “Ayiq bayrami” varianti va elementlari Sibir xalqlarining ba’zilarida 20 asrning boshlarida xam saqlanib qolgan. ỷrta Osiyoda esa “Ayiq ỷyini” pantomimik raqs sifatida keyingi vaqtlargacha yetib kelgan. Xatto xozirgi kunda xam ỷzbekiston territoriyasida, Turkiya, Xindiston, Kavkaz kabi joylarda kỷchalarda ayiq ỷynatib yurgan odamni “Ayiqchi” ni kỷrish mumkin. Ular odam gavjum joylarda kichik tomosha kỷrsatib yurishadi. Balki bu qadimiy ayiq ỷyinidan bizgacha yetib kelgan elementlarning bir bỷlagi bỷlishi mumkin.

Mexnat taqsimotining vujudga kelishi munosabati bilan qadimgi odamlarning chorvachilik va dexqonchilikka ỷtishi munosabati bilan ana shu yangi soxaga oid odat, marosim, bayramlari vujudga kelgan.

Ma’lumki, dexqonchilik xayotida eng quvonchli voqea - bu xosilni yig‘ish va yangi noz-ne’matlarni tatib kỷrish jarayoni bỷlgan. Yil bỷyi kutilgan bunday jarayon, tabiiyki, dexqonlarda bayram kayfiyatini vujudga keltirgan. Bronza davrlaridan boshlab ỷtroq dexqonchilikning vujudga kelishi va uning tez rivojlanishi natijasida baxorlarda mexnat mavsumiga kirishilish, kuzda xosilni yig‘ib olish yakuniga bag‘ishlangan bayramlar shu tariqa yuzaga kelib, ular yillar ỷtishi bilan an’anaga aylana boshlagan.

Demak, insonning “birinchi kasbi” - ovchilik asosida – “Ovchilik ỷyinlari” vujudga kelgan bỷlsa, uning dexqonchilikka ỷtishi va u bilan shug‘ullanishi natijasida “Mehnat ỷyinlari” shakllanib, yangi mehnat bayramlari uchun zamin yaratgan. Shunday qilib mehnat - bu bayramning bosh manbai, asl zamiri xamda ilk chashmasi hisoblanib, bayram xolati ibtidoiy davrdan boshlab “yashash uchun kurash” - mehnatning natijasi shaklida vujudga kela boshlagan. Tarixdan bizga shu narsa ma’lumki, ibtidoiy jamiyatda xam jamoa va uning a’zolariga bag‘ishlangan tantanalar asta – sekin shakllana borgan. Bu xildagi ilk shakllarga “Orgaistik bayramlarni” misol qilish mumkin. Bu kunda barcha erkak va ayollarga ỷzlari uchun juft tanlash erkinligi berilgan. Urug‘chilik davrida oila vujudga kelishi bilan ỷsha davrlarga xos tỷy marosimlari shakllandi. Bu qadimiy tỷylarning diqqatga sazovor tomoni shundaki, tỷy kuni kuyov va kelinning turmush qurishga qay darajada tayyorligi sinab kỷrilgan. Qadim davrlarda bayram kayfiyatida ỷtadigan marosimlardan yana biri “Erkaklikka ỷtish” edi. Uspirin unga uzoq vaqt tayyorlanib, ỷzining xayotga tayyorligi va kuchini namoyish qilishga intilgan. Bu marosimda ỷspirin qiynalgan, sinalgan, xullas, imtixondan ỷtkazilgan. Sỷng u bolalik odatlarini tashlab, kattalarga qỷshilgan birga ovga borgan, birga mexnat qilgan.

Ibtidoiy jamiyatdayoq odamlar atrofidagi xodisalarni anglashga intilganlar, lekin ularning tabiat sirlari oldida aqliy jixatdan ojizligi natijasida turli iloxiy kuchlarga sig‘inish, jumladan:

- totemistik (xayvonlarning iloxiy kuchiga sig‘inish)

- animistik (jon va rux obrazidagi iloxiy kuchlarga sig‘inish)
- politeistik (quyosh, suv, yer, olov va boshqalarga sig‘inish)
- magik (insonning sy̆z, odatlari orqali namoyish qilinadigan iloxiy kuchiga ishonish) kabilar vujudga keldi. Tabiiyki, ibtidoiy odamlar bunday qarashlarni, orzularini muayyan marosim va bayramlarda aks ettirishga uringanlar. Masalan, qurg‘oqchilik davrida “Yomg‘ir tilash” («Sust xotin»), shamol zarar keltirganda “Shamolni ty̆xtatish”- “Choy momo”, “Shamolni chaqirish”, bevaqt sovuq tushganda “Kuyoshga sig‘inish”, omad kelmaganda “Kurbonlik qilish” kabi marosimlar y̆tkazilgan. (Surxondaryo) dan topilgan juda ky̆p tosh qurollar, turli xayvon suyaklari xamda neandertal bolaning skeleti g‘orda yashovchi odamlarda y̆ziga xos primitiv madaniyat asoslari vujudga kela boshlaganidan dalolat beradi. Ibtidoiy teshiktoshliklar olovdan samarali foydalana olganlar. 9 yoshli neandertal bola dafn etilgan qabrdan xar xil predmetlar va tog‘ echkisi shoxini topilishi y̆sha davrlarda diniy tasavvurlar paydo by̆lganini tasdiqlaydi. Teshiktoshliklar e’tiqodi by̆yicha, tosh va shox ximoya vositasi sifatida murdani ximoya qilgan. Bola ky̆milgani va u xayvon shoxlari bilan y̆ralgani bu y̆sha davr odamlarida ma’lum ma’noda by̆lsa xam fikrlash qobiliyati borligidan dalolat beradi.

Omonqy̆ton g‘ori (Samarqand), Obiraxmat va Ky̆lbulok (Toshkent), Kalacha va Sy̆x (Farg‘ona vodiysi), Uchtut (Navoiy) oid topilmalar (150-3- ming yil oldin), odamlar ty̆da by̆lib yashab, ovchilik bilan xayot kechirishgani, ov qurollaridan foydalana boshlangani, bu bilan bir qatorda ovchilik y̆yinlari (ovga tayyorgarlik ky̆rish mashqlari) paydo by̆lgani xaqida ma’lumotlar beradi. Qoya va g‘or devorlarida ibtidoiy odamlar chizgan tasvir rasmlardan shuni bilsa by̆ladiki, bu davrdan boshlab odamlar y̆simlik va xayvonot dunyosini tushunishga xarakat qilganlar. Ularning ongi, xarakatlari, marosimlarida «fetishizm», ya’ni odam uchun kerakli narsalar (masalan, yog‘och va tosh qurollar) ni muqddasligiga ishonish; «animizm», ya’ni bu tabiatdagi barcha xodisalar, narsalar, xayvonlarning joni va ruxi borligi, ularning iloxiy kuchiga sig‘inish; «magiya», ya’ni atrofdagi barcha xodisa, predmet va jonzodlarga g‘ayri-tabiiy iloxiy kuch yordamida ta’sir etishga ishonish

unsurlari paydo bỷladi. Sỷnggi Paleolit (30 ming- 12 ming yil avval) davri Samarqand, Krasnovodsk (Turkmaniston), Uchtut (Navoiy), Oxangaron kabi maskanlardan topilgan yodgorliklar (mexnat qurollari) da esa san’at (badiiy bezak) izlari kỷzga tashlanadi. Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida madaniy – ma’rifiy faoliyatning yangilanishi, yutuqlari va muammolari.

Ma’naviy qadriyatlarimizni tiklash ỷz - ỷzidan bỷlayotgani yỷq, albatta. U eng avvalo, mustaqillik sharofati bilan vujudga kelgan tarixiy extiyojlar asosida ma’naviyat va ma’rifat soxasidagi isloxotlar zamirida sodir bỷlmoqda. Ma’naviy soxadagi isloxotlar doirasida quyidagi muxim ishlar amalga oshirila boshlandi. Eng muximi Vatanimizda jaxonda analogi yỷq «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi Kengashi tuzildi va unga yuklatilgan vazifalar ỷlkamizda jamoatchilik diqqatini ma’naviy masalalariga qaratdi.

Ma’naviyatni rivojlantirish - davlatning bosh vazifasi deb qarash - bu soxani jiddiy taraqqiy etishiga zamin bỷldi.

Uzbekiston Prezidentining «Ma’naviyat va ma’rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish tỷg‘risidagi (1996 y) Farmonida «Ma’naviy-ma’rifiy isloxotlar davlat siyosatining asosiy, ustuvor yỷnalishi, deb xisoblansin», - deb qayd qilindi.

«Ayrim katta-kichik raxbarlar... - deyiladi ushbu Farmonda, - ma’naviyatnig asl ma’nosini tushunib yetmaslik tufayli, unga ikkinchi darajali ish sifatida qarashmoqda. Ma’naviy-ma’rifiy ishlariga bỷlgan bunday e’tiborsizlik kelajagi buyuk demokratik, ozod davlat qurishdek ezgu maqsadimiz rỷyobi uchun mutlaqo ziddir». Farmondagi bu fikrlar turli darajadagi raxbarlarni xalq ma’naviyatiga jiddiy e’tibor berishga undadi.

Milliy mafkuraga bag‘ishlangan (6 aprel 2000 yilgi) anjumanda Prezidentimiz raxbar, xodimlar, eng avvalo, ma’naviyat, mafkura, madaniyat bilan shug‘ullanishi darkor ekanligini ta’kidladi.

Barcha darajadagi raxbarlar ma’naviyat bilan bevosita shug‘ullana boshlashi - barcha joylarda keng kỷlamda ma’naviyatni jonlantirishga imkoniyat yaratmoqda. Ma’lumki, ilgari, jumladan, shỷrolar davrida ma’naviyat bilan uchinchi raxbar (yoki raxbarnig uchinchi ỷrinbosari) ideologiya ishining bir qismi sifatida shug‘ullanar edi. Kỷpgina mustaqillikka erishgan davlatlarda xozir xam shunday bỷlib qolmoqda. Bizning Respublikamizda esa Prezidentimiz Farmoni asosida: «joylarda ma’naviyat bilan bog‘liq ishlarning amalga oshirilishi uchun butun mas’uliyat shaxsan Qoraqalpogiston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyat shaxar va tuman xokimlari, respublikamizdagi barcha vazirliklar, idoralar, tashkilotlar birinchi raxbarlarining zimmasiga yuklatildi. Prezidentimiz esa barcha raxbarlarga shaxsiy namuna kỷrsatib, ỷzini «ma’naviyatning bosh - xomiysi va ximoyachisi» deb e’lon qildi.

Yirik nufuzli tashkilotlarga ma’naviyat bỷyicha maxsus - raxbarning 1-ỷrinbosari lavozimi joriy etilishi – darxaqiqat barcha ishlar orasida ma’naviyatning birinchi ỷringa olib chiqilganiga amaliy isbot bỷldi. Ayniksa, oliy va ỷrta maxsus bilim yurtlarida rektor va direktorlarning «ma’naviyat va ma’rifat» bỷyicha 1-ỷrinbosari lavozimlari joriy etilishi – ỷquv yurtlarida va nafaqat yaxshi mutaxassislarni, balki ma’naviy kamol topgan bỷlajak raxbarlarni tarbiyalash uchun imkoniyat yaratdi.

Respublikamizda azaliy qadriyatlarni tiklash bỷyicha ỷta jiddiy tadbirlarning amalga oshirilishi - ma’naviyatimiz «bino» sining qaddini kỷtarishida muxim vositalardan biri bỷlmoqda. Natijada respublikamizda yangi ma’naviyat soxasi tizimi vujudga kela boshladi.

«O‘zbekkino», «O‘zbeknavo», «O‘zbekraqs», «O‘zbeklitsey», «O‘zbekteatr», Badiiy akademiya, ỷzbek amaliy san’ati markazi, «ta’lim markazi» kabi kỷplab respublika tashkilotlarining tuzilishi madaniyat va ma’naviyatning asosiy soxalarini taraqqiy ettirishga kỷmak bermoqda.

Darxaqiqat, milliy qadriyatlarni tiklash borasida amalga oshirilayotgan tarixiy ishlarimizni qamrovi juda kengdir. Ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

- Kỷp ming yillik tariximiz xaqqoniy, chuqur va xar tomonlama ỷrganilishi, tarixiy mavzulardagi (sovet davrida taqiqlangan) asarlarning chop etilishi milliy-tarixiy ongni shakllantirishda muxim rol ỷynamoqda.

- Xalq odatlari, marosimlari va bayramlari (Navrỷz, Rỷza xayit, Kurbon xayit kabilar) ning tiklanishi va yangi bayramlar (Mustaqillik kuni, ỷqituvchilar kuni, xotira va qadrlash kuni kabilar) ni joriy etilishi xalq ma’naviy xayotiga ijobiy ta’sir etmoqda.

- Diniy qadriyalarning tiklanishi, eski masjid va madrasalarning ta’mirlanishi, yangilarining barpo etilishi, diniy adabiyotlar nashr etilishi respublikamizda vijdon erkinligini ta’minlamoqda.

- Dunyo taraqqiyotiga ỷz xissasini qỷshgan - buyuk mutafakkirlar, davlat arboblarining ma’naviy merosidan xalqimiz faxr bilan foydalana boshladi, jumladan, Imom Buxoriy, At-Termiziy, Naqshbandiy, Axmad Yassaviy, Najmiddin Kubro kabilarning asarlari xalqimizga ruxiy-ma’naviy quvvat bagishlamoqda. YUNESKO yordamida jaxonga munosib xissa qỷshgan allomalar (Ulugbek, Amir Temur, Al-Xorazmiy, Axmad Farg‘oniy) ning yubileylarini ỷtkazish odamlarda milliy faxr tuyg‘ularini yuksaltirmoqda.

- Jaxonni lol qoldirgan tarixiy me’morchilik inshootlari keng qỷlamda ta’mirlanmoqda, jumladan, Buxoro, Samarqand, Xiva, Shaxrisabz kabi shaxarlarda tarixiy-me’moriy yodgorliklar tiklanishi,Buxoro va Xiva  kabi kadimiy shaxarlarning 2500 yilligi,Termiz shaxrining 2700 yilliginingyo nishonlanishi ajdodlarimiz ruxi oldida chukur xurmat tarzida namoyon bulmokda. Uzbek tilining davlat tili darajasiga kỷtarilishi esa milliy gururimizni ustirmokda. Uz navbatida jaxon tillarini ỷrganish extiyoji bizni olamga «yuz tutishimiz»ga, jaxon xamjamiyatiga qỷshilishga, umuminsoniy qadriyatlarni ỷrganishimizga yordam bermoqda.

- Xalq ijodi, amaliy san’ati jonlanib, vatandoshlarimizni xam, xorijliklarni xam lol qoldirmoqda. Xalq ijodi bu respublika va xalqaro anjumanlar ўtkazilishi, ajdodlarimiz qoldirgan meros va milliy-axloqiy madaniyat durdonasi yoshlarni tarbiyalashda muxim omil bўlmokda.

- Buni aloxida ta’kidlash kerakki, ajdodlarimiz merosini tiklash bўyicha kilinayotgan ishlarimizni nafaqat ўzimiz, balki butun jaxon tan olmoqda. Bu boradagi olamshumul ishlarimizni ўrganish uchun dunyoning kўpgina mamlakatlari (chunonchi, J.Amerika, Norvegiya, Gollandiya, Fransiya, Olmoniya, Turkiya) dan tashrif buyurgan mutaxassis-olimlar an’anaviy madaniyatimizni tiklash bўyicha qilinayotgan xarakatlarimizga qoyil qolishmoqda.

An’anaviy xalq madaniyatini yaxlit va kўp qirrali xodisa sifatida ўrganish, uning tuzilishi, asosiy kўrinishlari, shakllarini aniqlash muxim axamiyatga ega. Shu bois biz etnomadaniyat evolyusiyasi va umum qabul qilingan «madaniyat» tasnifidan kelib chiqib, xalq madaniyatining asosiy soxalarini aniqlashga intildik. Natijada, etnomadaniyat va uning tarkibiy qismi bўlgan an’anaviy xalq madaniyati tizimining tarkibiy qismida: xalq donishmandligi, xalq falsafasi, xalq e’tiqodi, xalq pedagogikasi, xalq odatlari, xalq ijodi, xalq ўyinlari, dam olish madaniyati, xalq pazandaligi, milliy liboslar, xalq me’morchiligi, xalq amaliy san’ati, xalq tabobati , xalq turmush madaniyati kabi kўplab soxalarni ajratsa bўladi.

An’anaviy xalq madaniyatining barcha soxalarida avlodlarning dunyoqarashlari, falsafiy tushunchalari ўz aksini topganligi uchun etnomadaniyat tarkibida xalq donishmandligiga aloxida e’tibor berish lozim. Buning sababi shundaki, xalqning g‘oya, fikr, bilim, dunyoqarashini ifoda etgan etnomadaniyat kўrinishini xalq falsafiy donishmandligisiz tasavvur qilib bўlmaydi. Taxlillar shuni kўrsatadiki, xalq madaniyatining falsafiy - g‘oyaviy mazmuni qanchalik chuqur bўlsa, uning shakli xam shuncha baquvvat, ijtimoiy axamiyati kuchli, umri xam boqiy bўlar ekan.

Xalq madaniyatining asosiy kỷrinishlarini aniqlash natijasida ỷziga xos xususiyatlari va tavsifiy belgilarini aniklash xam katta ilmiy qiymatga egadir.

Oddiy mexnatkash xalq ommasi madaniy - ijodiy faoliyat bilan asosan, ishdan tashqari, ya'ni bỷsh vaqtida mashg'ul bỷladi. Endilikda xanuzgacha deyarlik ỷrganilmagan an'anaviy dam olish madaniyatiga aloxida e'tibor berish lozim bỷlmoqda. Shu sababli xalq orasida mashxur bỷlgan mavsumiy dam olish an'analar («Gul sayli», «Suv sayli», «Tog' sayli», «Bog' sayli», «Gap-gashtak» kabilar) ga xamda turli tarixiy jarayonlarda madaniy - ma'rifiy xordik chiqarish maskanlari (Erkaklar uyi, Otashxona, Iydgox, Sherda Madaniy bog'lar, Tarobxona, Tomoshagox, Saylgox, ỷyingox, Choyxona kabilar) tajribasi diqqatiga sazovordir.

Xalq ijodiy an'analarini saqlash va rivojlantirish, jumladan, xalqning og'zaki, musiqali, amaliy, teatr - tamoshaviy deb atalgan asosiy ijod turlari janrlarini tiklashga oid uslublar ishlab chiqish zarurati tug'ilmoqda.

Xalq og'zaki ijodining askiya, doston, mushoira, lof, kulgi-xikoya, asotir (mif), afsona, ertak, latifa; an'anaviy musiqa ijodining: alla, yalla, yor-yor, alyor, terma, ashula , marosim qỷshiqlari va musiqa folklori asosida vujudga kelgan oilaviy jamoalar folklor etnografik guruxlar, xalq xavaskorlik jamoalari; xalq teatr-tomosha ijodining masxaraboz, qiziqchi, dorboz, muallaqchi, nayrangboz, qỷg'irchoqboz; xalk ommaviy - bezak ijodining naqqoshlik, kulolchilik, ỷymakorlik, zardỷzlik, tỷqimachilik; tabiat bilan bog'lik bỷlgan ijodning rang - barang tur va janrlarini taxlil qilish asosida shunday xulosaga kelindiki, ular avlodlar ongini , badiiy tafakkurini, estetik qarashlarini taraqqiy ettiribgina qolmay, balki ijtimoiy xayotning barcha soxalarida ijodkorlikni rivojlantirgan, xalqning ỷz tarixi va taqdiri xaqida ỷylashga, bunyodkorlik qilishga undagan. Shuning uchun, ijodiy merosni tiklash va kamol toptirish xalqning barcha ijtimoiy-madaniy soxalaridagi faolligini oshirishda muxim omil bỷladi.

Xalq pedagogikasi ming yillar davomida qaror topib, yuzlab avlodlarni tarbiyalash jarayonida vujudga kelgan ilg‘or axloqiy g‘oyalar, tajribalar va usullarni ўzida umumlashtirgan† Xalq pedagogikasiga oid tajribalar, an’analarni ўrganish natijasida tarbiyaviy jarayonning samarali bўlishiga xizmat qiluvchi «Tag maksad (tag ma’no), - podsel», salbiy tarbiyaviy jarayonni keltirib chiqaruvchi «xufiya tarbiya» - «tenovaya pedagogika» xamda katta qimmatga ega asrlar osha sinalgan «ustoz - shogird» an’analariga aloxida ўrin berish muxim ekan.

«An’anaviy xalq madaniyati» deyilganda keng ma’noda etnosning xayotidagi barcha qadriyatlar tushunilsa xam, uning tub ma’nodagi negizini xalq an’analari xosil qiladi. Shuning uchn xam xalq an’analarini ўrganish ўzbek madaniyatshunosligining asosiy vazifalaridan biriga aylanmog‘i lozim.

An’analar xalqning tarixiy shallanishi va rivojlanishi jarayonida yaratilgan va avlodlardan avlodlarga muqaddas meros sifatida ўtib kelayotgan bebaxo ma’naviy boyligi xisoblanadi. Etnos - millatning asosiy belgilaridan biriga aylangan odatlarni asrash va kamol toptirish xar bir avlodlarnig muqaddas burchiga aylangan. An’anaviy xalq bayramlarining tiklanishi ўzbek madaniyati tarixida ўta muxim voqea bўlib qolmoqda. Chunki bayramlar xayotning eng yaxshi tomonlarini ўzida mujassamlashtiradigan va aks ettiradigan kўzgu sifatida xalq madaniyatining yirik va muxim shakli xisoblanadi. Shuning uchun azaliy madaniyatning eng qimmatli tomonlarini qoidalashtirishga zamin yaratildi.

Mustaqillikka erishilgandan sўng, O‘zbekiston raxbariyati eng avvalo, xalqimizning extiyoji, orzu - istaklarini xisobga olib, azaliy bayramlarni tiklashga va yangi istiqlol bayramlarini shakllantirishga katta e’tibor bera boshladi. Jumladan, Uzbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov Farmonlari asosida «Navrўz», «Rўza xayiti», «Qurbon xayit» lar rasman tiklanib, xalq ўrtasida keng nishonlana boshladi. Shuningdek, istiqlolni sharaflaydigan ikki bayram «Mustaqillik kuni» va «Konstitusiya kuni» joriy etildi. Uz navbatida Uzbekiston raxbariyati SHўrolar davrida paydo bўlgan barcha bayramlarni ta’qiqlamadi. Ular orasida umuminsoniy

g‘oya va qadriyatlarni targ‘ib qiluvchi «Yangi yil bayrami», «Xotin-qizlar bayrami» kabilar saqlab qolindi.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonning asosiy davlat bayramlari asosan shakllangan bỷlsa-da, azaliy bayramlarni tiklash jarayoni tugagan, deb xisoblash notỷg‘ri bỷladi. Bu borada xali bajariladigan ishlar xam kam emas. Bir tomondan, azaliy bayramlar bilan birga ularga xos odatlar va an’analar tiklanishi darkor. Ikkinchi tomondan, mustaqillik davrida paydo bỷlgan tarixiy - ma’naviy qadriyatlar bilan xam boyitilmog‘i lozim.

Xalq an’analariga oid tadqiqotlarimiz, chunonchi, Markaziy Osiyo xalqlarining ming yil ichidagi yuzga yaqin bayram va marosimlariga oid tỷplangan ma’lumotlar taxlil natijasida quyidagilar ma’lum bỷldi: Insonning tabiiy - xayotiy extiyojlar asosida paydo bỷlgan marosim va bayramlar asrlar davomida ỷz axamiyatini yỷqotmaydi. Ularga siyosiy vaziyatlar, turli davlat sulolalarning maxv etilishi, xukmdorlar, istilochilarning kelib ketishlari, xattoki xududdagi axoli tarkibi ỷzgarishlari xam ta’sir etmaydi. Ikkinchi turkum bayram marosimlar esa ma’lum vaqtdan sỷng ỷzgarishi yoki boshqa yangi bayramlar vujudga kelishi asos bỷlishi mumkin. Uchinchi gurux marosim va bayramlar esa muayyan davr siyosati, davlat yoki xukmdorlarning xoxish-irodasi sifatida vujudga keladi, ỷshalar bilan birgalikda yashaydi va ỷz tarixiy vazifasini bajarib bỷlganidan sỷng barxam topadi.

Xalq an’anaviy madaniyati borasida sỷz borganda, yoshlar kamolotida muxim ỷrin tutadigan xalq ỷyinlariga aloxida tỷxtalish lozim. Buning sababi kuyidagilardan iborat: birinchidan, ỷyinlar - ajdodlarimizning eng qadimiy tarixiy qadriyati, kỷpgina madaniyati shakllari chashmasi – raqs, teatr, sport, marosimlar kabilar aynan ỷyinlar zaminida kelib chiqqan va tarixiy jarayonlarda ỷyinlar ajdod - avlodlarimizning sog‘lomlashtiruvchi vositasi bỷlib kelgan; ikkinchidan: ota-bobolarimiz xalq ỷyinlari va musobaqalari yordamida aqlan raso, ruxan tetik, jismonan baquvvat bỷlib kelgan; uchinchidan, ỷyinlar nafaqat ma’naviy meros bỷlib qolmasdan zamondoshlarimizni, ayniksa, yoshlarimizni aqliy, ruxiy va jismoniy barkamol bỷlishida ỷta muxim ỷrin tutadigan manbadir.

Uyinlar -eng qadimiy madaniyat shakllaridan biri. Ular kўpgina san’at turlari (raqs, teatr), marosim, sport kabilarning sarchashmasidir. Biz shunga aloxida e’tibor berib, Forish noxiyasida 1985 yildan boshlab unutilgan xalq ўyinlarini ўrganish (1985-86 yil) tiklash (1987-91 yil), va targ‘ib qilish (1991-93 yil) bўyicha tajribalar olib bordik. Buning natijasida, 100 ga yaqin ўyinlar tiklandi. Mazkur tajriba natijalari an’anaga aylanib, xar yili ўtkazilib kelinayotgan «Xalq ўyinlari» bayramlari olimpiadasi, qator filmlar va ommaviy axborot vositalarida, tadqiqotlarda ўz aksini topdi. Tajriba asosida xalq ўyinlarini tiklash va rivojlantirish yўllari belgilandi.

Respublikamizda xalq ўyinlarining tiklanishida xam aynan Jizzax viloyati Forish tumanini tajribasi diqqatga sazovor bўldi. Bu yerga avvaliga bir maktab, qishloq, keyin tuman, sўngra viloyat va nixoyat, respublika darajasida tiklangan xalq ўyinlari bўyicha musobaqalar uyushtirildi. Forishda 1994-96 yillarda Respublika I-II Olimpiadalari ўtkazilishi ўlkamizning turli joylarida azaliy xalq ўyinlariga bўlgan qiziqishni kuchaytirib yubordi.

Shu narsani quvonch bilan qayd etish kerakki, ўyinni jon dildan sevadigan yoshlarimiz ajdodlarimizning ўyinlariga katta qiziqish bilan qarashmoqda. Forishda ўtkazilgan olimpiada musobaqalarining ishtirokchilari asosan, ўspirin-yoshlardan tashkil topdi. Bu esa XX asr ўrtalarda unutilgan an’analarini asr oxirida tiklanib, yoshlar tomonidan ўtkazilganidan dalolat beradi.

